

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**  
**Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi kafedrasi**

**Qo'lyozma huquqida**

**AZIMOV AKMALJON AKRAMJON o'g'li**

**O'ZLIGIMIZNIG TARIXIY, MA'NAVIY VA FALSAFIY ILDIZLARINING  
TABIATI VA XUSUSIYATLARI**

**5111600-“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq” ta'lif yo'nalishi  
bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Ish rahbari: katta o'qituvchi I.Abdumalikov**

**ANDIJON-2016**

## **MUNDARIJA:**

<b>KIRISH</b> .....	3-4
<b>ASOSIY QISM</b>	
1. Milliy istiqlol g‘oyasining tarixiy, ma’naviy asoslari va falsafiy negizlari	5-24
2. Milliy o‘zligimizni belgilashning oqilona yo‘nalishi va ma’naviy to‘g‘ri belgilarini anglatuvchi omillar	25-31
3. Milliy o‘zligimizning asoslaridan biri insonparvarlik masalalari va ularning amaliy jihatlari	32-41
4. Manfaatlar tizimining milliy istiqlol mafkurasi falsafasiga ta’siri	42-53
<b>XULOSA</b> .....	54-56
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI</b> .....	57-58

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliji.** Kundalik ijtimoiy siyosiy iqtisodiy huquqiy, ayniqsa ma’naviy ma’rifiy va madaniy o‘zgarishlar hayotimizga kirib kelayotgan ilmiy, ijodiy yozma va og‘zaki ezguliklar ishlarimizni jadal ilgarilab borishini taqozo etmoqda. Shunday ekan biz ham o‘z ilmiy izlanishimizni shunday masalalardan biriga, ya’ni milliy o‘zligimizning poydevori bo‘lmish tarixiy, ma’naviy va falsafiy ildizlarimizga nazar solib tahlil etib bugungi mohiyatini tushinishga va yanada zamonaviylashtirib rivojlantirish omillarini tushunishga harakat qilib ko‘rdik. Bunday vazifani tabiy deb bilib, chunki “tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” deganidek Prezidentimiz I.A.Karimov, biz tarixiy, ma’naviy ildizlarimizni aniq anglamay uning falsafiy, metodologik tabiatini bilmay turib o‘zligimizni farqlay olishimiz mushkil bir holatga olib kelishi mumkin. Hozirgi zamonning ijtimoiy, siyosiy, madaniy talablaridan kelib chiqib, o‘z maqsadimizning ya’ni demokratik odil, huquqiy, fuqarolik jamiyati qurish, niyatimizni amalga oshirishda bizgacha va hozirda mavjud tushinchalar, qonuniyatlar, qadriyatlar falsafiy, metodologik tushunchalarni aniq bilmog‘imiz kerakligidan kelib chiqib mavzuyimizning dolzarbligini belgiladik.

**Mavzuning o‘rganilganlik darjasи.** Mavzu umumiy, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumi doirasida, politologiya, tarix, sotsiologiya, falsafa va boshqalar tomonidan juda ko‘p tadqiqot ob’ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Deyarli har bir ijtimoiy fan tadqiqodchisi bu masalani chetlab o‘tolmaydi. Prezidentimiz asarlarida, yurtimiz ijtimoiy hayoti masalalrini tadqiq qilayotgan ko‘plab olimlar asarlarida bu masalaga e’tibor berilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsad, vazifasi.** Ishning maqsadi, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarimizning tabiatini aniq bilishga intilish bo‘lib, globalizatsiya sharoitida O‘zbekiston o‘zi egallashga intilayotgan nufuzlik o‘rnining nechog‘lik maqbul ekanini isbot dalillar bilan ko‘rsata bilish. Demokratik o‘zgarishlar hayotimizga kirib

borayotgani sari ijtimoiy hayotimizda ham o‘zgarishlar bo‘lib boradi, demakki biz bu o‘zgarishlarni tushinibgina yoki qabul qilibgina qolmay uning tabiatini halqimiz hayot tarzidan ham qidirib topib uni rivojlantirish zaruratinu namoyish qilishdir.

**Bitiruv malakaviy ishning ob’ekti va predmeti.** Tadqiqot ob’ekti sifatida jamiyatimiz ma’naviy fikri, hayoti, manosabati, o‘zligi va aynan ijtimoiy o‘zligi masalalari, uch yo‘nalishda, tarix, ma’naviyat va falsafiy fikir asoslarida olingan.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.** Ilmiy yangiligi shundan iboratki bunda biz Milliy istiqlol g‘oyasi masalalining hayotiyligini tarixiy adolat yuzasidan turib isbot etgan holda, uning asoslari ma’naviy haqiqat bilan tasdiqlashga urindik, ikkala fikrdan kelib chiqqan xulosafiy fikirlarni falsafiy nazar va ilm poydevoridagi tabiatini tushinishga harakat qildik.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.** Mazkur mavzuning natijalariga ko‘ra ilmiy bashorat va istiqbol vazifalarini belgilanishi kelgusida Milliy birligimizni yanada mustahkamlash uchun bugungi yo‘limizdagি islohiy o‘zgarishlar qilish kerak bo‘lgan barcha kamchiliklarni bartaraf etishda ozuqa bo‘lishi mumkin bo‘lgan fikirlarni o‘rganishga harakat qilindi.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi.** Ish-kirish, asosiy qism 4 ta paragraflar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning xajmi 56 sahifani tashkil etadi.

## **1.Milliy istiqlol g‘oyasining tarixiy, ma’naviy asoslari va falsafiy negizlari**

Xayotimizning mazmuni bugungi kunda mustaqilligimiz tufayli boyib bormoqda, nafaqat yurtimizda balki dunyo miqyosida ma’naviy nufuzimizning ortishi to‘g‘ri va oqil olib borilayotgan davlat siyosatimizning mahsulidir. Konstitutsiyamizning 7-8-9-10-12 moddalarida aniq va ravshan qilib bayon etilganidek bu yurtda yagona xukumga faqat halq ega bo‘la olishi bitilib, uning nomidan faqat uning oqil farzandlari tanlab olingan vakillari ish yuritishi mumkinligi belgilangan. Keltirilgan fikr qayta-qayta ta’kidlanayotgan gapga o‘xshab ko‘rinishi mumkin bo‘lgani bilan, bugginga kunda har qanday shubhani xech bir ishsiz daf eta oladigan dalil ekanligiga shak keltirila olmadi. Buning zaminlari halqimizning 3000 ming yillik tarixi bilan asoslanishi, yurtimiz insonlarining o‘z yo‘lining shart sharoitlari va tarixiy poydevoriga qurilayotganini keltirib fikrimiz yo‘nalishi to‘g‘riligiga hech qanday shubha qolmaydi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki-ta’kidlab yozadi I.A.Karimov o‘zining dasturilamal asarida, o‘z davlatchiligin qo‘lga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish hech qaerda yengil va osonlikcha bo‘lmagan. Vatandoshlarimizning kundalik tilaklari tinchlik omonlik, yurtning obod va farovonligi istaklari hech ham o‘zidan o‘zi, “ertakdagagi kabi mening hohishim va cho‘rton baliq amri bilan sodir bo‘lmaydi, buning uchun iroda, mehnat, istak, ming yillik toqat, avloddan avlodga o‘tib boruvchi tajriba xayot falsafasi malakasi beshak berib borilishi, saqlab rivojlantirib borilishi va milliy o‘zlikning tabiatini, xususiyatida bo‘lmog‘i shart va zarur.

O‘zbekiston xalqini bugunga kunda jipslashtiruvchi Milliy istiqlol g‘oyasiing tarixiy zaminlari uning, jahon insoniyati tarixiga qo‘shgan xissasidan kelib chiqib, tamadduni tarixi, bilan to‘ldirib taraqqiy ettirilib, xozirgi kungacha saqlanib kelganida namoyon bo‘ladi. Buning asoslari tariximizdagagi avvalo shu zaminda yashagan kishilarining o‘z hayotining erkin, hur, ozod bo‘lishi uchun barcha kerakli harakatlarni amalga oshirganini ko‘ra olamiz. Yani To‘maris, Shiroq, Spitamen,

Muqanna va boshqa ko‘plab insonlar xayoti, qilgan ishlari Milliy istiqlolimizning qonga singib borishi tabiatini ko‘rsata oladi. Erkin, mustaqil inson o‘z farzandlarini ham shunday bo‘lishiga barcha fazilatlarini singdirishga intiladi, tariximiz bunga dalildir.

Turon zamin xalqlarining milliy tarixiy turmush va buning asosidagi tafakkuri tarzi o‘zligini, milliyligini, davlatchiliginu, iqtisodiy xususiyatlarini, ijtimoiy munosabatlarini, bag‘rikengligini belgilaganini ko‘ramiz. Tarximizdagi Zardusht, “Avesto” so‘zleri jaxon tarixi terminalogiyasida, ilmiy nazariy o‘ringa egaligini e’tiborga olinsa insoniyat ma’naviyatining bir o‘q tomiri shu yerdan ekanini ko‘ramiz. “Avesto” o‘zbek, umuman, O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, urf odatlari, ma’naviy madaniyatlarini o‘rganishda muhim manbadir” deb yozillarkan Zardushtiylik ta’limoti nafaqat bizning balki butun boshliq Osiyo qitasidagi ulkan hududning kishilari taqdirida ulkan o‘rin egallaganini yana bir bor ta’kidlamoqda. Zardusht ta’limoti inson fikri shaklida vujudga kelib diniy ta’limot darajsiga ko‘tarilib, xalqlar ma’naviyati madaniyati asoslarini shakillantirishi ma’lum darajada bizning avlodlarimiz va bugungi kun odamlarimiz yutug‘i desak xato bo‘lmaydi.

Tarximizdagi Al-Buxoriy, Al-Marg‘inoniy, Al-Matrudiy, Al- Farg‘oniy, Al-Horazmiy va yuzlab tariximiz, ma’naviyatimiz va madaniyatimizning O‘rta Osiyo xalqlarining ziyyosini namoyon etuvchilarining nomining o‘zi tariximiz nimaga boy degan savolga javob bo‘ladi. Dunyo dinlarining taraqqiyotida xalqimiz qo‘sghan hissasi nafaqat uni qabul qilish yoki ularga e’tiqod qilish balki ularni, ayniqsa islom dinini rivojlantirish va isloh qilishda ularning o‘rni beqiyosdir. Al-Buhoriyning va At-Termiziylarning to‘plagan saralangan hadisshunoslik ilmlari, muhaddislik mashaqqatlari islom olamida o‘zining beqiyos o‘rinlarga egadir, bu ham bizning xalqimiz tarixidir.

Horazm shohlari tarixi, Jaloliddin Manguberdi jasoratlari, Temur Malik jasorati, Maxmud Tarobiy kurashi, Turon zaminning nechog‘lik dunyo halqlari

tomonidan bo‘y sundirishga hohshi kuchli ekanini, unga qarshi tinimsiz kurash olib borish zarur ekanligini va insonlarimizning bunga doimo qahramonona tayyor ekanini namoyon etadi. Buning sababi va aybdorligi balki qo‘pol ko‘rinar “Buyuk ipak yo‘li” chorrahasi masuliyatidan ekanini xisobga olish zarur. Bu fikr bir tarafdan bizning o‘lkamizni kishilik jamiyatini alohida o‘rin tutishini belgilasa, ikkinchidan unga ega bo‘lish ham masuliyat ham katta imkoniyat, ham tinimsiz buni boshqarish va haqiqiy egalik qila olish vazifasi ulkan tarixiy yukligini anglash zarur. Misol uchun tarihmizda o‘zining ulkan o‘rniga ega insonlardan Xoja Ahror Valiyning “Sovdo sotiq masalalarda Xoja Ahror nafaqat Movarounnahr, balki Xuroson, Hindistonga ham savdo karvonlarini yuborib, tashqi savdo bilan shug‘ullangan.” Ma’naviyatimizning ulkan namoyondasi hayoti faoliyati ham bu yo‘lda o‘z o‘rnini ko‘rishi uning ahamiyati kattaligini ko‘rsatadi.

Tariximizning buyuk yutuqlaridan biri buyuk Amir Temur saltanatining vujudga kelishi, temuriylar davrining o‘ziga xosligi bo‘lib, tarix kitobi sahifalariga zarhal harflar bilan yozilganligi uning salohiyatini namoyon etadi. Amir Temur davri insoniyat tarixiga naqadar ulkan hissa qo‘sib jahonshumul tarixiy ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, yurtimiz xayotida undan ham ulkan hodisalar sodir bo‘lishiga sababchi bo‘lgan. Bular qatorida halqimizning sivilizatsiya tarixidagi xissasini bir necha bor ortishi, ilm fan, ma’naviyat, ma’rifatga, madaniyatga kiritilgan yangiliklar, o‘zgarishlar, rivojiy ko‘tarilishlar bemisildir. Ma’naviy hayot falsafasiga kiritilgan yangiliklarning aksariyati aynan shu davrda yuzaga chiqdi. Aslida Amir Temur va temuriylar davrida yuzaga kelgan barcha ishlarning tabiat halqimiz tabiatida borligini shubhasiz ta’kidlash mumkin, ammo ularning yuksalishi halqaro miqyosga chiqishi, tarixiy, umuminsoniy, umummilliy, insoniyat yutuqlari qatoriga kirishida aynan shu davrda olib borilgan buyuk insonlar faoliyati sabab ekanligini ta’kidlamoqchimiz. Chunki Amir Temur darajasida jahon taraqqiyotiga bilvosita ta’sir ko‘rsatgan tarixiy shaxslar kamdan - kam insoniyat tarixida yashab o‘tgan eng mashhur uch sarkarda Aleksandir Makedonskiy, Amir Temur, Napoleon Bonapardlar qatoridan joy olgan

yurtdoshimiz va ajdodimizni ulug‘lash o‘zbek xalqida va boshqa O‘rta Osiyo xalqlarida milliy ruh, milliy ong va milliy g‘ururni uyg‘otishi va mustaxkamlashi mumkin edi, shundoq ham bo‘ldi.

Tariximizdagи ma’lum darajadagi tushkunlik, tarqoqlik, qaramlik davrini ham alohida aytib takidlamay ilojimiz yo‘q. Negaki shu davrlarda halqimizning ich-ichidagi mustaqillik tuyg‘ulari, erkin, ozod yashash xoxish irodasi kurashlarda sayqallandi, charhlandi va o‘tkirlashdi. Ayniqsa “qizil imperiya” totolitar mafkuraviy hukumronligi davrida bu yaqqol namoyon bo‘ldi. Kommunistik mafkuraning zo‘ravonligi davrida halqimizning o‘zligini yo‘qotmasdan kelishi, nafaqat ayrim shaxslar balki ularni halq qo‘llashi bilan kuchli bo‘lib borishlarini qa’tiy takidlash mumkin. Erkin Voxidovning “O‘zbegim” qasidasini eslashning o‘zi alohida to‘xtalib tushintirish, tahlil qilinmasdan turib barcha tomonidan to‘la ruhiy tushinib qabul qilinadi. Yoki Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asaridagi, Eng buyuk jasorat, bo‘limida keltirilgan insonlarning nomini eslashniing o‘zi bunga ka’tiy javob bo‘la oladi, bular tarixiy shaxslar qatorida, davrimiz kishilari Yahyo G‘ulomov, Zulfiyahonim, Ozod Sharafiddinov va umuman halqimiz takidlanishi, tariximiz naqadar ulug‘, ma’naviy boy, madaniy yuksak ekanligini namoish etadi.

Mustaqillikning ikkinchi yilda asosiy qonunimiz qabul qilindi. Uning ikkinchi bobи 12-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatalishi mumkin emas,” deb yozib qo‘yilgan.<sup>1</sup> Yetmish yil totalitarizm jabrini tortgan xalqimiz bu qoidaning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini yaxshi tushunadi. “Uzoq va yaqin tarixdan yaxshi ma’lumki,- deb ta’kid etadi Prezident,- biron mamlakatda, biron davlatda yakkayu yagona g‘oya yoki mafkura hukmronlik qilar ekan, bu jamiyat,

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Konstitutsiyasi, T.-«O‘zbekiston»- 2016, b.11

bu davlat, albatta inqirozga yuz tutadi.”<sup>2</sup> Chunki hayot doimo o‘zgarishda, rivojlanishda. Inson tafakkuri, uning intilishlari, oldiga qo‘ygan maqsadlari ham doimo o‘zgarib, takomillashib boradi. Shu sababli unga har qanday g‘oyaviy, mafkuraviy taziyq o‘tkazishga urinish aks ta’sir ko‘rsatishi, noxush oqibatlarga olib kelishi tabiiy. Qolaversa, jamiyatning rivojlanish jarayoni ham undagi yetakchi tamoyillarning vaqtı-vaqtı bilan yangilanib, o‘zgacha ma’no, o‘zgacha tarkiblar hosil qilib turishini taqozo qiladi. Undagi ijtimoiy toifalarning mavqeい va ahamiyati ham turli davrlarda turli holatda bo‘ladi. Shunga muvofiq siyosiy kuchlar nisbati ham muayyan o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Shunday ekan, hech qaysi mafkura, jumladan, xatto milliy mafkura ham hayotiy ehtiyojlardan uzoqlashib, qotib qolgan aqida holiga tushmasligi uchun “davlat mafkurasi maqomiga ko‘tarilmasligi, aylanmasligi kerak”<sup>3</sup>.

“Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizga xos bo‘lgan eng muqaddas tuyg‘u va tushunchalarning mujassam ifodasi bo‘lishi kerak”,<sup>4</sup> - deydi Prezident. Milliy mafkurani o‘zlashtirish, bir tomondan, tafakkurimizning milliy ma’naviyatimiz ildizlaridan muntazam oziqlanib, quvvat olib turishi bilan bog‘liq. Ikkinchи tomondan, jahon madaniyati samaralaridan bahramand bo‘lmagan, zamon ruhini his qilmagan odam xech qachon milliy mafkuraning mohiyatini yaxshi anglab yeta olmaydi. Chunki odam o‘z qudratini to‘g‘ri belgilashi uchun maydonga chiqib, mardlar bilan kuch sinashi kerak. Shu ikki jihatning uyg‘unligiga erishish milliy mafkurani har bir inson ruhida voqeani shakllantirish bo‘ladi. Asli milliy mafkura yo‘q joydan sun’iy hosil qilinmaydi, allaqanday kabinetlarda o‘tirib to‘qib chiqarilmaydi. Bu haqiqatni Prezident O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi umumiy yig‘ilishida 1994 yil yozida so‘zlagan nutqidayoq bat afsil tushuntirib bergen edi. Unda islomiy qadriyatlar, ma’naviy meros, xususan, Sharq falsafasini teran o‘rganish haqida so‘zlab, Yurtboshimiz yaqin o‘tmishdagi

---

<sup>2</sup> I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yuk T.-« O’zbekiston»- 1999.

<sup>3</sup>I.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.. 467 T.-« O’zbekiston»- 1996.

<sup>4</sup> I.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.502 T.-« O’zbekiston»- 1996.

qaramlik mafkurasidan xalos bo‘lish uchun “o‘zimizning asrlar sinovidan o‘tgan, ulug‘ ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaviy umumbashariy ruh bilan boyitish vazifamiz” ekanligini ta’kidlagan edi.<sup>5</sup>

Keyinchalik 2000 yil 6 aprelda Oqsaroy qarorgohidagi suhbat asnosida bu haqda mukammal ta’rif shakllandi. Prezident unda yuqoridagi fikrni batafsil ifodalab aytdiki, "milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so‘z bilan aytganda, o‘z milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o‘ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati, uning farovonligi yo‘lida xizmat qilmog‘i darkor."<sup>6</sup>

Milliy mafkuraning ma’naviyatga nisbati qanday? Bu nisbatni to‘g‘ri aniqlash uchun yana bir narsani e’tiborga olish lozim bo‘ladi. Mustaqilligimizning uch asosiy jihat mavjud. Siyosiy mustaqillik, iqtisodiy mustaqillik, ma’naviy mustaqillik. Bularni bir-biridan judo qilib bo‘lmaydi. Ammo har birining o‘ziga xos masalalari ham bor. Biz ularni keyinroq yana batafsil ko‘zdan kechiramiz. Hozircha ta’kidlash o‘rinliki, siyosat, iqtisod va ma’naviyat sohalarida bizning bugungacha erishgan yutuqlarimiz darajasi barobar emas. Undan tashqari har bir sohaning mohiyatidan kelib chiqsak, milliylik unsurining salmog‘ida ham farq bor. Demak, dunyo xalqlari tajribasidan biz o‘rganishimiz, balki bevosita o‘zlashtirishimiz kerak bo‘lgan narsalar turli yo‘nalishda turlicha miqyosda bo‘lishi tabiydir. Shunday ekan, milliy mafkuramiz tizimini faqat yoki asosan ma’naviy merosimizda mavjud qadriyatlarga bog‘lab qo‘yish voqelik talablariga to‘liq javob berishi qiyin. Chunki mafkuramiz, ya’ni kelajak rejalarimizni belgilovchi va aniqlashtiruvchi maqsad yo‘nalishlarimiz tizimida yuqorida sanab

---

<sup>5</sup> I.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T.-«O’zbekiston»-1996, b. 260

<sup>6</sup> I. Karimov. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo’limiz bilan quramiz.7-jild,-T.: “O’zbekiston”, 1999 y,b. 135.

o‘tilgan har uch yo‘nalish: siyosat, iqtisod va ma’naviyat sohasiga oid muammolar barchasi o‘zaro uyg‘unlikda qamrab olinadi. Ma’naviyat shular ichida faqat bir yo‘nalishdir. Albatta, juda muhim yo‘nalish, asli ma’naviyat masalalarini yechmay turib, na iqtisodiy, na siyosiy vazifalarimizni tugal hal qilib bo‘lmaydi; ammo baribir uch yo‘nalishning biri, xolos. Iqtisod yoki siyosat sohalaridagi dolzarb yumushlarni ham hech qachon, xalq ma’naviyatini talab darajasida yuksaltirib olib keyin amalga oshiramiz, deb orqaga tashlab bo‘lmaydi. Bu sohalar bir-biri bilan oldin-keyin emas, bir paytning o‘zida, teng rivojlantirilib boriladigan sohalardir.

Insoniyat tarihi bu muayyan mafkuraga asoslangan dalatlar va xalqlar tarixidir. Dunyodagi xech bir dalat o‘z oldiga aniq maqsad g‘oya qo‘ymasdan rivojiana olmaydi. Mafkura uzoq taraqqiyot istiqbollarini belgilab berishi, xalq va jamiyat muddaolari, maqsadlarini aniqlab, qanday jamiyat quramiz degan savolga javob berishi kerak. Bunda halqning hayot, ijtimoiy muxit, siyosiy tizum, iqtisodiy ruhiyat kabi hislatlarini belgilaydigan, yo‘naltiradigan falsafiy tabiat bo‘lmog‘i kerak, shundagina bu halqning kilgan va qilmoqchi bo‘layotgan ishlari va faoliyatiga to‘g‘ri javob topish mumkin. Shundagina bu insonlardan nima kutish mumkinligaga ishonch bilan biron bir xulosa qilina oladi. Insoniyat sivilizatsiyasi erisha boshlaganidan beri juda ko‘plab vaqt o‘tmoqda, ammo hali beri tinch osoishta hayotga intilib ungan erishgan, farovon hayot qurib tinch osida yashayotgan halqlarni tanish ularga oqil deya tashhiz qo‘yish mumkin bo‘lmagan jamiyatlar ham mavjud ekaniga afsuslanasan kishi. Ming shukurlar bo‘lsinki bizning halqimizning hayot falsafasi uning tabiatini bizga dadillik bilan O‘zbekiston halqi o‘zligiga, o‘zligi falsafasiga egadir deya olamiz.

Ilg‘or ahloqiy meros qadriyatlar u yoki bu odamga hos ahloqiy normalar-mardlik, kamtarlik,adolatlilik, halolik, haqgo‘ylik, samimilik,vijdonlilik, or-nomusli bo‘lish kabi umuminsoniy ahloqiy qadriyatlarni yoshlarga singdirish alohida ahamiyatga ega. Bu ahloqiy qadriyatlar, kishilik jamiyatining uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyoti natijasi o‘laroq paydo bo‘lib, ideal ahloqiy xususiyatlar sanaladi.

O‘zbekistonning miliy istiqlol mafkurasi, yurtimizda yashovchi barcha halqlarni millatidan, dinidan, tilidan, ijtimoiy holatidan qa’tiy nazar umumiylashtiruvchi, safarbar etuvchi umumiylashtiruvchi, o‘zida aks ettiradi. Prezident I.A.Karimov “Tafakkur” jurnali bosh muharriri savollariga javoblarida milliy g‘oya, milliy mafkura tushinchasi barcha xalqlarga xos umumiylashtiruvchi, qadriyat ekanini atroflicha asoslab bergan holda, “istiqlolga erishgan kunimizdan boshlab milliy mafkura O‘zbekiston jimiyatining miliy g‘oyasini yaratish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda” deb mutaxasislarimizning iqtidoriga va olimlarimizning zakovatiga katta umid bog‘lagan bo‘lsa, Oliy Majlis ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida esa uni yanada umumlashtirgan tarzda, “Bu borada bugun shakl topayotgan milliy mafkura konsepsiyasini ming yillik milliy qadriyatlarimizni xozirgi zamon umumbashariy talablar bilan uyg‘unlashtirgan holda yaratish va odamlar tafakkuriga singdirish olimlarimiz, faylasuf va siyosatshunoslarimiz, umuman, ilmiy jamoatchiligidan dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda”- deb aytadi.

Avvalo shuni qayd etish lozimki, mafkura bir muddat namoyon blib, so‘ngara sunib qoladigan tasodify xodisa emas, balki ijtimoiy siyosiy o‘zgarishlarning tarkibiy qismi, ularni maqsad va yo‘nalishlarini ifodalaydigan g‘oyalar yig‘indisidir.

Buyuk ajdodjlarimiz xukumronlik qilgan bu ko‘hna zaminda qadim qadimdan buyon xur, erkin fikir qadirlanganligi, adabiyot va sa’natning naqadar ravnaq topganidan ko‘rish mumkin. Prezident I.A.Karimov an’analarga asoslanib ish yuritadi. Vujudga kelgan hodisalarni ana shu tarixiy tajriba va fuqarolar ehtiyojlaridan kelib chiqib tahlil etadi.

Xalqimizning hayotiy falsafasining asoslарини ба’зи бирларини кeltirgan xolda umumiylashtiruvchi, o‘tmishdan ya’ni Donishmandlar so‘zlaridan boshlanadi, negaki xalq o‘zi dono so‘z deb bilgan maqol, masal, matal, rivoyat, afsona va

hokazolarni o‘zi qalbida, aqlida saqlab boradi, uning asosida kishilarning hayot falsafasi jamlanadi. Falsafa so‘zining mazmuni ham mohiyati ham “donolikka intilish”, “donolik haqida”gi fan bo‘lganidan kegin demak donolar hikmati aynan jamiyat falsafasi mavqeini olishi mumkin. Bunda albatta qator ilmiy fikirlar bo‘lmog‘i zarur. Masalan odob, ta’lim tarbiya, iste’dod foydalari va unga qarshi o‘laroq bo‘lmish beodoblikdan yetadigan zararlarni ochib berish jamiyatning naqadar oqilligini ochib beradi.

Ma’naviy hayot falsafasini chuqurligi, kengligini ko‘rsatuvchi omillar sifatida jamiyatning ya’ni turon zaminda yashab ijod etgan allomalarni nomlari keltirilishini bilamiz. Ammo bu yo‘nalishda biz boshqacha fikr qilib olim, ilm, kitob, qalam, ustoz, kasb hunar, yaxshi fazilatlar kabi jamiyat ziyyosini alohida ajratib ko‘rilsa umumiylar bo‘lmish falsafasini takidlamoqchimiz.

Insonlar ijtimoiy mavjudod bo‘lganidan so‘ng uning hayotida eng asosiy fazilat bu muloqat, o‘zaro ko‘mak, bir bo‘lib yashash birga mehnat qilish, birga hatto ibodat qilish va boshqa shu kabi xususiyatlarni talab etadi. Bunda shu munosabatning falsafasi asoslarini ko‘rish mumkin bo‘lgan oila, ota-onas, qarindosh urug‘chilik, qo‘shnichilik, muloqat vositalari va usullari bo‘lmish suhbat, suhbatdoshning yahshi yomon ta’siri, do‘stlik, do‘stlik qoidalari, do‘stdushmanni farqlash kabilar jamiyatimizning o‘zgalarga munosabat falsafasini aniqlashga ko‘mak bo‘lib hizmat qiladi.

Turon zamin halqlari tarixida, o‘zbek millati hayotida alohida o‘rin olgan aniq falsafiy hayot tarzi mavjud bo‘lganligi sir emas. Hozirda ham o‘z ilmiyligi, diniyligi, dunyoviyligi bilan o‘z o‘rniga ega bo‘lgan bu dunyoqarash so‘zsiz Tasavvuf ta’limotidir. Tasavvuf uzoq asrlar davomida halqimiz ma’naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan. Insonning ruhiy ahloqiy poklanishi, ilohiy muhabbat bilan yuksalib borishi bu ta’limotning asosiy g‘oyalalaridir. Shu bois tasavvuf chuqur insonparvarlik g‘oyalari bilan omuxta bo‘lib, haqiqat talabida yurgan odamlar qalbiga yo‘l topdi, odamlarning poklik, abadiy hayo, ko‘ngil hurriyati haqidagi orzularini ifodalab kelishgan. Shu bois tasavvufning tarixiy

taraqqiyoti, nazariy jihatlarini o‘rganish barobarida, yirik shayhlar, avliyolar faoliyatini o‘rganish ham muhim hisoblanadi.

Masalan tasavvuf tariqatlari turkumiga qaralsa deyarli barchasining strategik falsafasi bir bo‘lgan holda taktik jihatdan ya’ni uning namoyon bo‘lishi turli yo‘sindaligini ko‘ramiz. Bunda birinchisi, Musohosiya oqimi asoschisining nomidan kelib chiqib, uning fikricha rizoga e’tiqod qilib, Rizo aslida maqom ma’nosini anglatib, ikki hil bo‘ladi, biri Xudoning insonlardan rizoligi bo‘lsa, ikkinchisi insonlarning Hudodan rizoligidir. Malomatiya, bu tariqatning asoschilarining bosh nazariyasiga ko‘ra har bir so‘fiy o‘z fazilatlari va odamlarga qilgan yaxshiliklarini pinhon tutmog‘i, o‘zini aybdor va gunohkordek ko‘rsatib yurmog‘i darkor. Tayfuriya , bu ta’limot asosini sukr, ya’ni ko‘roq halqdan uzoqlashib, xilвату uzlatda faoliyat ko‘rsatish tashkil qiladi. Yana ko‘plab ta’riqati ta’limotlarni dunyo xalqlari intiqosidan keltirish mumkin, Bizning xalqimizning ijtimoiy, diniy, dunyoviy hayot falsafasiga ham shu tariqatlar fikr, g‘oyalari o‘z ta’sirini ko‘rsatganini isbot qiluvchi oqimlardan dastlab Yassaviy ta’limotini aytish kerak. Bu g‘oya O‘rtta Osiyo halqlari hayotiga 9-10 asrlarda kirib kelgan bo‘lib o‘z mohiyatiga ko‘ra tarkidunyochilik (asketizim) dunyoning barcha lazzatlaridan voz kechib Ollohnning jamoliga yetishlikni, nafs balosini batomom yengishni maksad vazifa qilib qo‘yiladi. Bunda jamiyat falsafasiga taaluqliy bo‘lgan jihatni aynan nafsni tiyish, gunoh va razolat ishlaridin nari qochish, jamiyatga zarar keltirmagan xolda o‘z ibtidosini toat ibodatda o‘tkazish deb bilsa bo‘ladi.

Yana ikki asosiy ta’riqat oqimlaridan bular biri Kubroviya bo‘lsa ikkinchisi Naqshbandiya yo‘nalishlaridir. Har ikkisining ham ma’naviy- ma’rifiy ozuqasi jamiyat falsafasini yanada ezgulashishida qa’tiy o‘z o‘rinlariga egadirlar. Qubroviya, O‘rtta Osiyoda paydo bo‘lib unga shayh Najmiddin Kubro Xorazmiy asos solgan. Ta’limotning negizini hufya zikr tashkil etib, Qur’oni hufya o‘qib o‘rganish tarafdlari edilar. Kubroviyalar boshqa tasavvuf tariqatlarida bo‘lganidek, uzlatda, go‘shanishanlikda bo‘lishni, tarkidunyochilikni targ‘ib

qilganlar. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, kubroviya tarafдорлари javonmardlikni o‘zlarining muhim fazilatlaridan biri deb bilishgan.

O‘rta Osiyo halqlari hayot falsafasiga muhim tasir etadigan falsafiy g‘oyalardan yana biri Naqshbandiya, ta’limotidir. Bu ta’limotning asoschisi Buxorolik Bahovuddin Muhammad Naqshbanddir, o‘z fikrining asoslarini Abulkoliq G‘ijduvoniyning xufya zikr haqidagi fikridan olgan. Ularning aqidasiga ko‘ra , har bir so‘fi faol inson bo‘lmog‘i, biron bir kasb-kor bilan shug‘ullanib qo‘l kuchi bilan topilgan risqu ro‘zi evaziga kun kechirmog‘i lozim, ya’ni “dil ba yoru dast ba kor” bo‘lmog‘i zarur. Shuning uchun ham naqshbanddiylar go‘shanishinlik, tarkidunyochilikni qa’tyan rad etishgan.

Bularning barchasi halqimizning tubdan, dil qaridan kelib chiqadigan, mustaqil tarzda hayot fikrini shakillantiradigan g‘oyalardir. Ammo e’tibor berish zarur bo‘lgan jihat shundaki, ular o‘z kuch qudratiga ko‘ra halqning aksariyat ruhiyatini egallagan bo‘lsada mafkura darajasida uning erkinligiga hukumronlik quvvatiga ega bo‘lgan emas, o‘z qudratini ko‘rsatib insonlarni o‘ziga bo‘ysundirish niyatini oldiga qo‘ygan emaski, shu bois ham u doimo kishilar iymon etiqodi, ishonch iymonini mustahkamlashga xizmat etgan.

Yangi davr siyosiy tuzimlariining aksariyati milliy dunyoqarashlarga, an’analarga va ehtiyojlarga asoslanmagan har qanday davlat tizimi uzoqqa bormayapti, negaki uni ming zo‘rlagani bilan halq tan olmaydi.

O‘zbek halqining azaldan fikr erkinligi mavjudligi bilan birga mustaqillik mafkurasining falsafiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ahloqiy asoslari ham mavjud bo‘lib ular quydagilarni tashkil qiladi: Mamlakatimiz tanlayotgan birligimizning asosini tashkil etuvchi milliy istiqlol mafkurasini birini halqimizning qadimiy va boy tarixi tashkil qiladi. Negaki Prezidentimiz tabiri va oqil fikirlar qatoriga kirgan “Tarixiy xotirasiz – kelajak yo‘q” so‘zlari kechagi kunimizga adolatli baho berib, bugungi yo‘limizni to‘g‘ri belgilagan holda istiqbolimizni belgilashda masalaga oydinlik kiritishga imkon beradi;

Mafkuramizning falsafiy asosi avvalo, buyuk allomalarimizning falsafiy meroslariga, Suqrot, Aflatun, Arastu singari jaxon falsafasining namoyondalari qarashlariga insoniyatning bugungi ilm fan ma’rifati, kishilarning ma’naviy ruhiy iznalishlariga tayanadi;

Siyosiy asoslari insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, tili, ijtimoiy ahvoli, siyosiy etiqodlaridan qa’tiy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini davlat tomonidan ta’minalash tashkil qiladi;

Iqtisodiy asoslari mulk shakillarining ko‘p xilligiga asoslangan bozor munosabatlaridir;

Huquqiy asoslari halqaro huquqiy normalarga asoslanib barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustivorligini ta’minalashdan iboratdir;

Ahloqiy asoslari umuminsoniy va milliy ahloq normalariga tayanadi;

Falsafiy fikirlarimizning mazmun mohiyatini jamlab xulosa o‘rnida Prezidentimiz I.A.Karimovning “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida keltirilgan ahloqiy – ma’naviy negizlarimizning tamoyyllaridagi to‘rt asosiy unsirning hayotbaxshligi namoyon bo‘ladi. Bunda avvalambor umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, milliy o‘zligimiz asoslarini tiklash va rivojlantirib borish, jamiyat a’zolarining barcha hayotiy jabhalarda erkinligini to‘la tom ma’nodagi ta’milanishi va bularning yakuniy natijasi sifatida vujudga keladigan vatanparvarlikning ham ruhiy, ham ongli, ham ma’naviy, ham amaliy bo‘lishligi nazarda tutiladi.

Prezidentning yangi kitobida xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar ham, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari ham turfa yo‘nalishda, yashab turgan dunyomiz, atrof-voqelik kabi serjilo va murakkab ekanligiga e’tibor qaratilgan. Muallif ularni bir-bir sanab ko‘rsatar ekan, aslo yagona manbaga olib borib bog‘lamaydi, yagona dushman axtarmaydi. Kitobda bayon etilgan mamlakat xavfsizligiga tahdid soluvchi kuchlar turlicha va turli darajada quvvatga ega,

taraqqiyotimiz kafolatlari ham rang-barang va turli-tuman omillarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq.

Prezidentning bu yangicha yondoshuvi to‘lig‘icha, ham necha ming yillik milliy ma’naviyatimiz an’analariiga, ham bugungi jahon fikriy kamolotining eng ilg‘or tamoyillariga tayanadi. Unda har bir shaxs ma’naviy hurligi, bir tomondan, vatan va millat manfaatlariga muvofiqlik bilan, ikkinchi tomondan, umumbashariy qadriyatlar muhofazasi bilan uyg‘unlashgan. Zero, asl ma’naviyat shaxs, millat, bashariyat manfaatlarining uyg‘unlidigidir. Bu uyg‘unlik yagona oliy xaqiqatga og‘ishmay intilishda namoyon bo‘ladi.

Yevropa falsafiy tafakkurida inson va jamiyat munosabatlariga nisbatan olganda ikki xil yondoshuvni kuzatamiz. Ulardan birinchisi jamiyatni birinchi o‘ringa qo‘yib, undan alohida inson taqdirini, uning fazilat va qusurlarini keltirib chiqarishga intiladi. Bu yondoshuvning ildizi chuqur. Marksning «inson o‘z mohiyatiga ko‘ra barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir», deb bergen ta’rifining uzoq tarixi avvalida Aristotelning “Zoon politikon”(ijtimoiy mahluq) atamasi turadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Gegel falsafasi ham qadim Yunondon boshlangan yo‘nalishni davom ettirib “mutlaq g‘oya”dan keyin moddiy borliq, ya’ni tabiat, undan keyin jamiyatni va oxirida alohida sub’ektni olib tadrijiy tahlil etadi. Bunga keyincha marksistlar “ob’ektiv idealizm” deb tamg‘a bosishgan. Yevropa falsafasining ikkinchi yo‘nalishini faylasuflarimiz “sub’ektiv idealizm” deb nomlab o‘rganishgan bo‘lib, bunda birinchi o‘ringa inson shaxsi chiqariladi. Bugun dunyoda keng yoyilgan ekzistensializm, freydizm kabi falsafiy tizimlar, darhaqiqat, inson shaxsi, uning o‘y-kechinmalarini falsafiy tahlil markaziga qo‘yishi bilan ajralib turadi. Bu sohada XX asrning yetakchi faylasuflaridan hisoblangan Erix Frommning jiddiy mushohadalari ko‘pchilikning e’tiboriga sazovor bo‘lib kelmoqda. Ammo bizning maqsadimiz bugungi kun Yevropasidagi falsafiy bahslarni tahlil qilish emas. Bizni birinchi navbatda o‘z milliy ma’naviyatimiz an’analari qiziqtiradi.

Alloh Odam Atoni yer yuzida xalifa qilib yaratganligi ilohiy kalom bilan tasdiqlanishini muqaddimada keltirib o‘tgan edik. Bu maqom inson zotiga nafaqat imtiyoz, balki juda og‘ir mas’uliyat yuklaydi. Inson yer yuzidagi barcha Allah yaratgan mavjudotlarni tasarruf qiladi, shu bilan birga ular uchun mas’ul hamdir. Agar Gegel o‘z yaxlit falsafiy tizimida nazarini “mutlaq g‘oya”dan moddiy borliq(tabiat), jamiyat orqali alohida sub’ekt (Inson)ga qarab yo‘naltirgan bo‘lsa, bu uning muayyan ichki intilishlari, maqsad yo‘nalishi, va balki, u yashab ijod etgan muayyan zamon va makonning taqozosidir. Bugun bizning muayyan sharoitimizda Prezident I.A.Karimov mutlaqo boshqacha yondoshuvni taklif etmoqda. “Har bir kishi o‘zicha noyob hodisa, -deb yozadi u, - bu mening qat’iy ishonch-e’tiqodim”.<sup>7</sup>

Bugun biz - O‘zbekiston xalqi bir tanu bir jon bo‘lib, o‘zimiz saylab qo‘ygan Prezidentimiz yetakchiligidagi yangi voqelik – mustaqil va mutaraqqiy Vatan, farovon va ozod jamiyat yaratmoqdamiz. Buning uchun “ijtimoiy maxluq” emas, qudratli yaratuvchi kuch egasi bo‘lmish erkin va sobitqadam Inson shakllanishiga erishmog‘imiz kerak. “Bizning asosiy maqsadimiz,- deydi Prezident, - bir kishi yoki jamoat tashkilotlarining fikri davlat tuzilmalarining fikridan ustun bo‘ladigan fuqarolar jamiyati qurishdan iborat.”<sup>8</sup>

Darhaqiqat, o‘tmishimiz qancha buyuk bo‘lmasin, kelajagimizning ulug‘vorligi millatning har bir a’zosi, O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi ushbu kelajakda Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, inson baxti to‘kis ta’milanishi uchun qay darajada faollik ko‘rsata bilishi va bu faolligining samaralari, unumi bilan belgilanadi. Buning uchun esa imon va ilm, iqtidor va iste’dod, iroda qudrati va maqsad yo‘lida fidoiylik, keng dunyoqarash va erkin fikr kerak. Agar qaysi millat o‘ziga mansub har bir insonnnig barcha ichki imkoniyatlari, iste’dodi ro‘yobga chiqishiga sharoit yaratmas ekan, har bir shaxsning tashabbusi qadr topmas ekan,

---

<sup>8</sup> I.Karimov. I.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild.T.-«O‘zbekiston» 1996

<sup>9</sup> I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q jild, T.-« O‘zbekiston»- 1999,s.41

har bir yosh qalbida bilimga, tafakkurga, faol yaratuvchilikka intilish ishtiyoqi alanga olmas ekan, millat kamoli, mamlakat qudratining yuksalishi haqidagi gaplar og‘izda qolib keta veradi. Har bir fuqarosining baxti uchun qayg‘urmagan jamiyat yetuk jamiyat bo‘lmaydi. Shu sababli mustaqil yurtimizda o‘tkazilayotgan barcha islohotlar, qabul qilinayotgan barcha qonunlar ruhi shunga yo‘nalmoqda. Jahondagi eng oliyjanob va mas’uliyatli yumush - do‘stingni, hamkoringni, qo‘sningni, o‘zga insonni “ulug‘ maqsadlar yo‘lida yo‘ldoshlik qilishga ko‘ndirish,” - deydi Yurtboshimiz.

Tahdid ta’limoti “vahdatda kasrat, kasratda vahdat” g‘oyasiga tayanadi. Har bir inson borliq xaqiqatining bir jihatini ifodalaydi, butun insoniyat fikri umumiyligi maxrajga keltirilsa, xaqiqatga ancha yaqin kelinadi. Bu g‘oya milliy ma’naviyatimizdagi yetakchi g‘oyalardan bo‘lib, ayniqsa, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida yorqin ifodalangan. I.A.Karimov xuddi shu g‘oya’ni amaliyotchi sifatida quyidagicha bayon qiladi: “Har qanday fikrni umumiyligi fikrlar majmuining bir bo‘lagi deb hisoblab, bundan kerakli xulosalar chiqarish lozim”.

Borliqda biz bilgan va bilmagan dunyolar, biz bilgan va bilmagan shaxslar(sub’ektlar), biz bilgan va bilmagan munosabatlar mavjud. Shunday ekan, biz Borliq haqiqati haqida umuman fikrlamoqchi bo‘lsak, kalavaning uchini topa olishimiz dargumon. Agar biz nimanidir aniq tasavvur qilib, hayotimizga bevosita tatbiq qilishni istasak, o‘zimiz inson ekanmiz, o‘z mohiyatimizdan kelib chiqishimiz, ya’ni inson shaxsini, uning voqe’ ehtiyojlarini diqqat markaziga qo‘yib, voqelikning aniq maqsadlar sari yo‘nalgan modelini yaratishimiz zarur.

Marksizm jamiyatni birlamchi qilib olib, insonning mohiyatini undan keltirib chiqarmoqchi bo‘lgani uchun qanday usul bilan bo‘lmasin (masalan, inqilob, ya’ni siyosiy to‘ntarish vositasida) ijtimoiy vaziyatni o‘zgartirishga erishilsa, inson ham shunga qarab o‘zgaradi, degan aqidada bo‘ldi. Albatta, atrof-voqelikning insonga mutlaqo ta’siri yo‘q, deb hisoblash to‘g‘ri emas. Ammo inson ma’naviy kamoloti ta’milanmasa, turli siyosiy to‘ntarishlar faqat fojalarni ko‘paytiradi, xolos. Bunga tarixning achchiq saboqlari - dalil. Inson mustaqil tafakkur egasi, shu sababli har

bir alohida shaxs o‘z atrofida yuz berayotgan muayyan voqealarga o‘ziga xos munosabat namoyon etadi, voqelikni hech qachon hamma bir xil qabul qilmaydi. Demak, birov o‘ziga nisbatan yuz bergan salbiy hodisadan ijobjiy xulosa chiqarsa, ikkinchi kishi, aksincha, ijobjiy munosabatga salbiy aksta’sir namoyon etishi ham mumkin.

Inson mohiyatida asli yaratuvchilik yetakchi o‘rin tutadi. Dunyoning obodligi insonning yaratuvchilik faoliyati bilan bog‘liq. Insoniyat yaratuvchiligi bilan barhayot, kurashlari bilan emas. Demak, har bir zamon va makonda jamiyat taraqqiyotini insonlarning faol yaratuvchiligi belgilaydi, aksincha emas. Mustaqillik sharoitida nihoyat ushbu o‘zak muammo to‘g‘ri hal qilindi. Hayotga yondoshuvda diqqat markazi “jamiyatga” emas, alohida insonga qaratildi. Iqtisod sohasida bu narsa ayniqsa yaqqol namoyon bo‘lmoqda. “Jamiyat”ga tayangan tuzum “ijtimoiy” mulkning yakka hukmronligini o‘rnatib, xususiy mulkka egalikni jinoyat darajasida talqin etib, qonun bilan taqiqlab qo‘ydi. Faqat mustaqillik tufayli har bir insonning mulkni erkin tasarruf qilish huquqi Konstitutsiyamiz asosida to‘liq qayta tiklandi, jumladan, endilikda xususiy mulk barcha boshqa mulk turlarining poydevori sifatida qaralmoqda. Bu o‘zgarish iqtisod sohasida alohida inson shaxsi birinchi o‘ringa chiqayotganligini anglatadi.

Haqiqiy xalq hokimiyatichilagini mustahkamlash, qonun ustivorligini ta’minalash, fuqarolar jamiyatini shakllantirish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar esa siyosat sohasida alohida shaxs mavqeini birinchi o‘ringa olib chiqishga qaratilgan. Siyosat sohasida erkinlashtirishni kengaytirish rejalar ham yana bir marta davlatimiz va Prezidentning ushbu yo‘nalishga ustivor ahamiyat qaratayotganligidan darak beradi.

Ma’lumki, inson jamoa bo‘lib yashaydi, shu bilan birga har bir inson moddiy vujud sifatida nafaqat atrofidagi o‘zi singari mavjudotlar bilan, balki tabiat, aniqrog‘i moddiy borliq bilan ham doimo amaliy munosabatda bo‘lishga majbur. Shundan kelib chiqib, moddiyunchilar insonning mohiyatini iqtisodiy va ijtimoiy (jumladan, siyosiy) munosabatlar doirasida belgilashga harakat qilishadi. Ular

dinni ham, madaniyatni ham faqat ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar majmuidan keltirib chiqarmoqchi bo‘lishadi. Bunday yondoshuvda inson moddiy, biologik mavjudot sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo uning boshqa biologik mavjudotlardan mohiyatan farq qiluvchi maxsus munosabatlar doirasi mavjudligi va bu munosabatlar o‘zicha mustaqil sohani tashkil etishi tan olinmay, soyada qolib ketadi. Bu soha insonning Haq bilan, Borliqning mohiyati bilan munosabatiga oiddir.

SSSR davrida hukmron komfirqa va davlatning barcha qarorlarida iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy masalalarga katta ahamiyat berilgan holda madaniyatga eng oxirida g‘aribgina bir joy ajratilar, “ma’naviyat” tushunchasi esa o‘sha paytlarda yuqori doiralarda umuman ishlatilmas edi. Alovida qayd etib o‘tish joizki, milliy ma’naviyat nazariyasining shakllanishiga O‘zbekiston Prezidentining qo‘sghan eng muhim xissasi ma’naviyatning iqtisod va siyosat bilan bir qatorda inson va jamiyat hayotidagi alovida mustaqil o‘rni va ahamiyatini ajratib ko‘rsatish bo‘ldi. Busiz nafaqat ma’naviyat nazariyasi, balki insonning mustaqil mohiyati haqidagi g‘oya ham o‘z mukammal izohini topmay qolib kelayotgan edi.

Prezident I.A.Karimov doimo iqtisod, siyosat va ma’naviyatning uyg‘un rivojlanishi zarurligini ta’kidlab keladi: “Davlat qurilishi, iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ma’naviy kamolot, yuksak axloqiylik bilan to‘la uyg‘un bo‘lmog‘i kerak.”<sup>9</sup> Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi - mustaqil milliy siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma’naviyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Agar siyosiy mustaqillik bo‘lmasa, millat asta-sekin o‘zligini yo‘qota boradi, iqtisodiy mustaqillik bo‘lmasa, siyosiy mustaqillikning zamini mo‘rt bo‘ladi. Ammo ma’naviy mustaqillik bo‘lmasa, millatning o‘zi bo‘lmaydi. Faqat ularning o‘zaro uyg‘un rivoji ta’min etilsagina, O‘zbekiston ulug‘ yurt sifatida jahon hamjamiyatida o‘z munosib o‘rnini egallay oladi.

---

<sup>9</sup> Islom Karimov. Yuksak mag’naviyat yengilmas kuch T, Ma’naviyat 2016y

Iqtisod, siyosat, ma’naviyat tushunchalari bugungi kunda turli doiralarda har qadamda ishlatilmoqda. Bu masalaga iqtisodchining o‘z qarashi, siyosatshunosning yana mustaqil ta’riflari bor. Ammo inson va jamiyat hayotini uch yo‘nalish yoki uch sohaga ajratib o‘rganishning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Avvalo, O‘zbekiston Prezidentining ushbu yo‘nalishdagi mulohazalarini milliy ma’naviyatimiz an’analari va jahon falsafiy tafakkurining turli oqimlariga xos umumiy jihatlar bilan uyg‘unlikda olib, xulosa qiladigan bo‘lsak, inson hayotining bu uch yo‘nalishi voqelikda o‘zaro qanchalik murakkab va chatishib ketgan bo‘lmashin, ularni bir-biridan aniq farq qilgan ma’qul. Chunki iqtisod, siyosat va ma’naviyat insonning Borliq bilan turlicha mustaqil munosabatlariiga oid bo‘lib, ulardan har birining manbasi ham, maqsadi ham alohidadir.

Inson hayotida ma’naviyat sohasining mustaqil ahamiyati alohida ta’kidlanishi, qolgan sohalarning o‘zaro chegaralarini ham qayta ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Ulardan, shartli ravishda, iqtisod yo‘nalishi deb nomlash mumkin bo‘lgan birinchisi inson bilan atrof tabiat orasidagi amaliy munosabatlardan iborat. Buning asosida insonning moddiyligi yotadi. U moddiy vujud sifatida tabiat bilan doimiy modda almashuv holatida bo‘ladi. Buning uchun inson o‘zgalar bilan ham murakkab munosabatlarga kirishadi. Ammo bu yo‘nalish doirasida insonlarning bir-biri bilan munosabati bevosita ular orasidagi nisbatga qaratilgan emas, balki tabiat bilan modda almashuv munosabatlarini tashkil etishga yo‘nalgandir.

Insonlarning bevosita bir-biri bilan munosabati ham o‘z mustaqil asosiga ega. Har bir insonning o‘zga insonlar bilan bevosita munosabatlariiga oid bo‘lmish bu yo‘nalishni, yana shartli ravishda, siyosat deb atash ma’qul ko‘rindi. Bu munosabatlar nimada ko‘rinadi? Iqtisodiy, ya’ni moddiy ta’midot bilan bog‘liq muomalalar bevosita siyosatga aloqasi yo‘q, buni yuqorida ham eslatdik. Sof siyosat doirasida insonlar aro munosabatlar oxir-natijada mavqe va maqom masalasiga borib taqaladi. Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostoni voqealarining boshlang‘ich tuguni ayni shu maqom va mavqe muammosidan ulgu olishi beziz emas. Agar insonlar faqat «qorin to‘ydirish» tashvishi bilan

yashaganda, ularning hayvonlardan umuman farqi bo‘lmas edi. Va iqtisodiy munosabatlar ham o‘zga jonzotlardagi kabi anchayin ibtidoiy bosqichda qolib ketish ehtimoli bo‘lardi. Ayni mavqe va maqom doirasidagi bahs xolis siyosiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Makiavelli kabi mashhur g‘arb allomalarining qarashlarida ushbu sof holda olingen siyosat o‘z aksini topgan deyish mumkin.

Ammo inson nafaqat tabiat va o‘zga insonlar bilan munosabatga kirishadi, balki u o‘zining Haqqa, Borliqning mohiyatiga nisbatini ham bilmoxchi bo‘ladi. Inson uchun bu yo‘nalish ham o‘ta muhim. Avvalo, inson biror narsaga ishonmay yashay olmaydi. Imon-e’tiqodsiz hayot – bema’ni umrguzaronlik, xolos. Qolaversa, inson ilmga, ya’ni Borliqni anglab yetishga o‘zida juda kuchli ehtiyoj sezadi. Inson Borliqning mohiyati haqida muayyan tasavvur hosil qilmay yashay olmaydi. Yana inson doimo oldiga kattami-kichikmi bir maqsad qo‘yib, shunga intilib, shu yo‘lda qandaydir faoliyat ko‘rsatib yashaydi. Aytish mumkinki, hayvon nuqtai nazaridan qaraganda, inson o‘zini ko‘pincha bekordan-bekorga qiynaydi. Masalan, Tohirning Zuhroga ishqisi, bu yo‘ldagi fidoyiliklari fiziologik ehtiyojlar nuqtai nazaridan uncha tushunarli emas. Abu Ali ibn Sinoning umrini ilmga baxsh etishi, Alisher Navoiyning «Xamsa» yozishi ham moddiyuncha «jaydari» falsafa nuqtai nazaridan anchayin oshiqcha o‘zni qiynashdir. Ammo inson ma’naviyatida riyozat, ya’ni muayyan maqsad yo‘lida barcha qiyinchiliklarni bo‘yinga olish nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Yana insonda mehrga ehtiyoj bor. O‘zgaga mehr ko‘rgazish va o‘zgadan mehr ko‘rish ehtiyoji. Bu tuyg‘uni ham faqat g‘arazli maqsadlarga bog‘lash yetarli bo‘lmaydi. Albatta, moddiyunchilar aytib o‘tilgan har qaysi ma’naviy ehtiyojga o‘zlaricha moddiy zamin topib berishga harakat qiladilar. Hozircha, bu masalalar yuzasidan jiddiy bahs boshlamay turib, faqat bir narsani qayd etib o‘tish joizki, inson hayotidagi uchinchi yo‘nalish, ya’ni insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga bo‘lgan munosabatini tan olmaslik insonning o‘zga maxluqotlardan asliy farqini yo‘qqa chiqaradi va oxir-natijada inson hayotini ma’nosizlantiradi. Chunki inson mohiyatan ma’naviy kamolot imkoniga ega bo‘lgan yagona moddiy mavjudotdir.

Albatta, ta’riflab o‘tilgan uch soha manfaatlari voqelikda nihoyatda chatishib ketgan, har qanday hodisada har uch soha unsurlari uchraydi. Bundan tashqari umuman mavjud uch sohadan birining muayyan muddat o‘zgalaridan orqada qolishi, oqsashi qolganlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularni orqaga torta boshlashi ham tabiiy qonuniyat. Biroq tarix ibrati va mantiq xulosasi shundan dalolat beradiki, iqtisod, siyosat, ma’naviyat yo‘nalishlarini bir-biriga bo‘ysundirishga, birini-biridan keltirib chiqarishga urinish ham yaxshi natijalarga olib kelmasligi aniq.

## **2. Milliy o‘zligimizni belgilashning oqilona yo‘nalishi va ma’naviy to‘g‘ri belgilarini anglatuvchi omillar.**

Jamiyatning rivojlanishining yuksalish sari intilishini avvalombor uning olidiga qo‘ygan maqsad vazifasidan ko‘rish mumkin. Negaki nazariy jihatdan belgilanmagan maqsad sari borish nimaga olib borishini hech kim va hech kachon kanday natija berishini aytib berolmaydi. Bunda strategik va taktik vazifa, xalqning millatning o‘zligidan kelib chiqib belgilanishi zarur. Bugun mamlakatimizdagi olib borilayotgan yangi jamiyat qurilishi nazariy jixatlari, yuzaki qaraganda, ayrim shaxslar hoxish irodasi bilan bog‘lovchilar ham yo‘q emas, aslida esa qilinayotgan ishlarning barchasi, maqsad kechinmalari bularning barchasi halq hoxish irodasidir. Yangi jamiyat qurilishida halqimiz o‘z oldiga qo‘ygan maqsad intilishlarining dastalabki odimlari, imqon intilishlari, tahdid va muvoffaqiyatlari, kurash va hoxishlari ochib berilgan I.A.Karimovning mustaqillikka intilgan fikr va harakatlari jamlangan O‘zbekiston mustaqillik kitobidagi barcha masalalardan kelib chiqib, mustaqilligimizning dastlabki kunlarida yozilgan dasturilamal asarni e’tiborga jalb etish zarur. Bu kitob 1992 yilning avgust oyida chop etilgan “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” kitobidir. Unda birinchi bo‘limda berilgan “O‘z yo‘limiznin shart –sharoitlari va zaminlari” masalalarida ravshan qilib biz kimmizu biz nima qilmog‘imiz kerak, kabi azaliy savolga javob berilgani bilan ulug‘dir. “O‘zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to‘plagan va respublika sharoitiga tadbiq qilsa bo‘ladigan barcha ijobjiy va maqbul tajribalarda shak- shubhasiz samarali foydalanadi.- deb ta’kidlab o‘tilgan va davomida - Jahon va o‘zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o‘z ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy- huquqiy taraqqiyot yo‘limizni tanlab olish respublikaning qa’tiy pozitsiyasidir. Bunday deb berilgan fikirlar haqiqatda halqning aksariyat ko‘pchiligining hohish irodasini namoyon etadi.

Xalqimizning xayot falsafasiga, uning ijtimoiy tabiatiga solingan xususiyatlar, Mustaqillik, Erkinlik, birodarlik, bag‘rikenglik, tolerantlik va shu

kabi barcha ezgu xislatlar qadimdan mavjud ekanligini yuqorida ta'kidlangan. Yana bir bor ta'kidlab shuni aytish keraki, ma'naviyatimizning tabiatini, poydevorini tashkil etadigan asosiy omil “Avesto”dagi “Ezgu niyat, ezgu so‘z, ezgu amal” qoidasi yoki Amir Temur bobomiz hayot tamoyili “Rosti rusti” ya’ni “Kuch adolatdadir” so‘zlari bugungi davlatimiz rahbari Prezident I.A.Karimov tamonidan “ Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch” tamoyilini ilgari surishi O‘zbekiston halqining ruhiy qudratini ko‘rsatadi.

Demak bugun belgilagan maqsadimiz utopiya, sarob, yo‘q joyga emas balki mustahqam tarixiy, ma'naviy, ma'rifiy madaniy chuqur ildizlarga tayanadigan poydevorga qurilganini aytishimiz mumkin. Demakki “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat” deb yozilganda, har birimiz “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat” deya g‘urur bilan aytib ta'kidlab qaytarayotganimizda balandparvoz so‘zlarni emas balki hoxshimizni istagimizni aytayotganimizni bilamiz.

Qaramlik davrida marksizm falsafasi totalitar tuzum imkoniyatlaridan foydalaniib, yagona haqiqatga da’vo qilishi oqibatida uning medologik asosi qilib olingen dialektika xususida ham bir taraflama tasavvurlar shakllandi. Sobiq “SSSR” hududida dialektikadan boshqa metodlar g‘ayri ilmiy deb e’lon qilindi. Faylasuflarimiz Forobiyidan ham «dialektika» topishdi o’sha davrlarda. Asli bu yerda atamalarni chalkashtirish bor xalos. Qadim Yunon falsafasidan islom ilmiga o’tgan narsa – «ilmi jadal», shuning yunonchasi «dialektika» deyiladi. «Ilmi jadal» - bahs mantig‘i, o‘ziga xos ilmiy bahs yuritish metodologiyasi. U barcha fanlar uchun «yagona» metodologik zamin bo‘la olmaydi.

Ammo metodologiya muammosi bari-bir ilmiy voqelikda mavjud, undan qutulib bo‘lmaydi. 1999 yildan boshlab O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotining iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy, ilmiy-falsafiy va ma'naviy asoslari bo‘yicha nomzodlik va doktorlik ilmiy darajalari, dotsentlik va professorlik ilmiy unvonlariga da’vogarlar uchun maxsus imtihonlar kiritildi. Bu bejiz emas. Ma'lumki, ushbu fanning asosini Prezident I.A.Karimov asarlari tashkil etadi. Demak, Prezident asarlari mamlakatimiz miqyosida bugungi kun

ijtimoiy fanlar sohasi uchun metodologik zamin bo‘lib xizmat qilishi nazarda tutilmoxda. O‘zbekistonning milliy mustaqilligini I.A.Karimov e’lon qildi. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li konsepsiyasini I.A.Karimov ishlab chiqdi.

Prezident I.A.Karimov asarlarida o‘z aksini topgan g‘oyalar va qarashlar bugungacha millatimiz va butun insoniyat bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘llari tajribasini imkon va zarurat darajasida hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Demak, uning asarlarida taklif etilayotgan metodologik asoslar ham bugungacha bashariyat ilmi erishgan yutuqlarga begona emas. Shu bilan birga bizning yo‘limiz muayyan darajada o‘ziga xos ichki yaxlitlikka ega va biror-bir zamon va makonda ishlab chiqilgan metodologik asoslarning hech birini hech qanday o‘zgarishsiz, taqlidiy shaklda bugungi bizdagi ijtimoiy ilmga bevosita poydevor qilib, ko‘chirib olib kelib, o‘rnatib bo‘lmaydi. Qiyosiy tahlil uchun jalb etish boshqa narsa. Nega shunday? Chunki har bir millatning tarixi, ma’naviy qiyofasi, ustun qadriyatlar tizimi betakrordir. Alloh shunday yaratgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Prezident O‘zbekistonning o‘ziga xos iqtisodiy rivojlanish yo‘li asoslarini ishlab chiqar ekan, birinchi marta “*dunyoda umumiyo‘l-yo‘riqlar, o‘xshash andazalar yo‘q*”<sup>10</sup> ekanligini e’tirof etib, o‘zimizning milliy “*betakror yaxlit andozamizni ishlab chiqish*”ni maqsad qilib qo‘ydi.<sup>11</sup> Buning uchun milliy tafakkur an’analarimizni insonlar ongida qayta tiklash zarur edi. “*Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlari, bizning eng yaxshi an’analarimiz qayta tiklanganda islohotlar muvaffaqiyatga erishadi*”, deb ta’kidladi Prezident.<sup>12</sup> Asosiy qonunimizni yaratish jarayonida ham shu jihatga katta e’tibor berildi. Shu sababli mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi “*umumiyo‘l mazmunidan tortib oddiy bir bandiga qadar Xo‘ja Ahmad Yassaviy bobomiz*

---

<sup>10</sup> I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q T.-«O‘zbekiston»- 1999, 2-jild, s.3

<sup>11</sup> I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q T.-«O‘zbekiston»- 1999,1-jild, s. 277

<sup>12</sup> I. Karimov. Uzbekiston Xxi- Asr bo’sag’asida,T.-«O‘zbekiston»- 2000,2-jild, s. 13

*davrida, Amir Timur zamonida shakllangan milliy tafakkurni, muqaddas islomiy qadriyatlarni o‘zida aks ettiradi*”.<sup>13</sup>

Shunday qilib, mustaqil O‘zbekistonning XXI asrdagi taraqqiyot yo‘lini belgilab beruvchi umummetodologik asoslar Prezident I.A.Karimov asarlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, quyida biz ushbu asoslarning o‘z mavzuimizga bevosita aloqador bo‘lgan ba’zi muhim jihatlarini qisqacha ko‘zdan kechirib o‘tamiz.

Islom Karimovning “*O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*” kitobi mustaqillik davri milliy mafkurasining umummetodologik asoslari shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi. Bu asar voqelikka yondoshuv va muammolar tahlilida mutlaqo yangicha g‘oyalarni oldinga suradi.

“*Bu yorug‘ olamda biz kimmiz va ne bir sir-sinoatmiz, qayoqqa qarab ketayapmiz?*” deb o‘z-o‘ziga savol beradi kitob muallifi. XXI asr bo‘sag‘asida dunyo ko‘zimizga qanday ko‘rinadi? Uning fazilat va qusurlari nimada? “*Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega?*”<sup>14</sup> Bu yorug‘ jahon marksizm talqiniga mutlaqo muvofiq emasligini yurtboshimizning kitobidan yorqin tasavvur qilamiz. Masalan, sobiq “SSSR” davrida tashqi siyosat muammolari ham dunyonи qarama-qarshi ikki qutbga bo‘lingan holda tasavvur qilish asosiga qurilar edi. Jumladan, o‘sha davrdagi sho‘rolar tuzumi uchun eng asosiy xavf manbai “xalqaro imperialistik kuchlar” hisoblanar edi. Sovet jamiyatidagi barcha ichki illatlar manbai ham “feodal va burjua o‘tmish sarqitlari” hamda “jahon imperializmining nayranglari” oqibati deb qaralardi. Muallif bu tasavvurlarning o‘tmishga aylanganini qayd etadi: “*Ikki mafkuraviy tuzumning kurashi va bu kurashning xalqaro hayotning hamma sohalariga soya tashlashi ostida o‘tgan kuchli qarama-qarshilik barham topdi*”.<sup>15</sup>

---

<sup>13</sup> I.Karimov. Bizdan ozod va obod vatan kolsin T.-«O‘zbekiston»- 1999,

<sup>14</sup> I.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. T.-«O‘zbekiston»-1998, s.

<sup>15</sup>I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q 4-jild, T.-« O‘zbekiston»- 1999,

Dunyo endi ikki qutbli emas, deb ta'kidlaydi Prezident o‘z asarida va ushbu ko‘p qutbli dunyoda har bir millat, har bir inson o‘z yo‘lini to‘g‘ri topib yura olishi uchun voqelikka qanday nazar bilan qarashni o‘rgatadi. Nasihat qilib, ko‘rsatma berib emas, shaxsiy namuna ko‘rsatib, voqeiy ibrat orqali namoyon qiladi. Bu muhim g‘oya Prezidentning falsafiy qarashlari uchun yangilik emas. I.A.Karimov 1995 yil 27 oktabrda O‘zbekiston teleko‘rsatuvalar muxbiri bilan suhbatdayoq bugungi kunda “ko‘p qutbli dunyo haqida fikr yuritish lozim bo‘ladi”,<sup>16</sup> deb aytgan edi. U Birlashgan millatlar tashkilotining vazifalari haqidagi o‘z mulohazalari bilan o‘rtoqlashar ekan, yana shu fikrni rivojlantirib shunday degan edi: “Afrika qit’asi vakillari o‘zlariga xos, osiyoliklar - boshqacharoq fikr qiladi... Amerikaliklarning o‘z yondoshuvlari, yevropaliklarning o‘z yondoshuvlari bor”<sup>17</sup>. Demak, shunday sharoitda jahonning 187 davlati vakillaridan tuzilgan tashkilotning asosiy vazifasi - “xalqlar o‘rtasidagi ahillikni ta’minlash, turli qarama-qarshiliklar, to‘qnashuvlarga olib keladigan nizolarga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat” bo‘lmog‘i tabiiydir.<sup>18</sup>

Milliy jihatdan o‘zligini tanigan inson millatini, Vatanini, uning o‘tmish tarixini, adabiyoti, san’ati va madaniyatini, jahon sivilizatsiyasiga unutilmas hissa qo‘shegan va tafakkur osmonida yulduzday porlab turgan buyuk allomalar vorislari ekanligini bilib oladi. O‘zligini anglagan inson, o‘zligini anglagan millat ulug‘ ajdodlarining sha’ni-shavkatiga, aqlu zakovatiga, ularning hayotbaxsh, qutlug‘ meroslariga hamisha munosib bo‘lishga harakat qiladi, Vatanini o‘zgacha mehr bilan sevadi, u bilan cheksiz faxrlanadi, yurtim deb, elim deb yashaydi. Otabobolari an'analarini davom ettirishni, ular yetolmagan taraqqiyot cho‘qilarini egallashni o‘zining asosiy maqsadi deb hisoblaydi, milliy qadiriyatlarni umuminsoniy qadriyatlardan ajratmaydi.

---

<sup>16</sup> I.Karimov. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-jild. T.-«O‘zbekiston»-1996, s.62

<sup>17</sup> I.Karimov. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-jild. T.-«O‘zbekiston»-1996, s.62

<sup>18</sup> I.Karimov. Yuksak mag’naviyat yengilmas kuch T, Mag’naviyat 2008y

Milliy o‘zligini anglash-olamni bilish, unda ro‘y berib turgan murakkab hodisa va jarayonlar mohiyatini ilmiy fahmlab olish demakdir. Milliy jihatdan o‘zini anglagan insongina mamlakati va millati oldida turgan asosiy maqsad-muddaolar nimadan iboratligini tushunib yetadi, o‘zining el-yurt oldidagi burchi va mas’uliyatini chuqur anglaydi.

Prezidentimiz tomonidan qayta-qayta aytib kelinayotganidek, ma’naviyat o‘z xalqi tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Ma’naviyatning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi ahamiyati aytib o‘tilganlardangina iborat emas. Ma’naviyatning bebaholigi uning turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qarindosh qilishligida, ularning taqdirini o‘zro hurmat asosida yaqinlashtirishida ham yaqqol ko‘rinadi. Ma’naviyat inson hayotini go‘zallashtiradi, turmushiga mazmun va mohiyat bag‘ishlaydi. Yuksak ma’naviyat va madaniyat sohibi bo‘lgan inson otashin vatanparvar, yurti va xalqi ishiga fidoyi, qalbi pok, so‘zi bilan ishi bir, ilmi xulqiga monand bo‘ladi.

Ma’naviyati ustuvor bo‘lgan inson o‘zini harom-xarishdan tiyadi, manmanlik, takabburlik qilmaydi, boshqalar ustidan kulmaydi, birovlarining baxtsizligi, ko‘z yoshi hisobidan baxtli bo‘lishni o‘zi uchun nomunosib ish deb bilmaydi. Unday odamning qalbi, vujudi ilm-ma’rifat nuri bilan charog‘on, rahm-shafqat, mehr-muruvvat bilan limmo-lim bo‘ladi.

Bilimli, odob-axloqli, madaniyatli, ma’naviyati yuksak odam elu yurti, millati bilan cheksiz faxrlanadi, uni deb yashaydi, mehnat qiladi. Xalqi, millati kamolotiga biron-bir hissa qo‘shsa o‘zini baxtiyor inson deb hisoblaydi. Unday odamlar mustaqilligimizning qadr-qimmatiga, tarixiy ahamiyatiga chuqurroq, teranroq tushunadi, uning istiqboli va iqboliga astoydil ishonadi, kelajakka yuksak ishonch va e’tiqod bilan qaraydi.

Ma’naviyati yuksak insonlar jamiyatimiz, millatimiz, xalqimiz va davlatimizning eng katta, beba ho boyligidir. Undaylarning qadr-qimmatini o‘lchab ham, baholab ham bo‘lmaydi.

Milliy madaniyat va milliy o‘zlikni anglash, milliy ongi yuksaltirish yagona millat ma’naviy dunyosining qo‘sish qanotidir. Qush ikki qanoti bilan baland-balandlarga uchgani kabi milliy sha’nini o‘z sha’nidek his etadi va uni himoya qiladi. Mabodo milliy madaniyat va milliy o‘zlikni anglash bo‘lmasa, millat sha’ni tushib ketadi.

Milliy o‘zlikni anglash va milliy ong yuksaltirish real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy asoslarda shaxs ongida qaror topadi va u iroda bilan bog‘lanib, amaliy harakat tusiga kiradi. Chunonchi, milliy o‘zligini anglagan shaxslar hozirgi tarixiy sharoitda mamlakat xayotining barcha sohalaridagi salohiyatini ko‘tarish zaruriyatini anglab, yetadi.

### **3. Milliy o‘zligimizning asoslaridan biri insonparvarlik masalalari va ularning amaliy jixatlari.**

Kishilik jamiyati azaldan, tarixan qadimiy davirlardan beri ezgulik, mehr oqibat, o‘zaro sadoqat sari intilib, barcha yaxshilik xislatlarini jamlaganda odamni tabiat shoxtojisiga aylantiruvchi hislat insonparvavrlik sari intiltirib borgan. Inson tafakkuri mahsuli bo‘lmish ma’naviy ma’rifiy yuksaklik sari intiltiruvchi ta’limotlarda, yuksak insoniy fazilat omili bo‘lmish ma’naviy ma’rifiy g‘oyalarda, badiy ijod namunalari, afsonalardan tortib oddiy maqolalarda, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi beomon qarama qarshilik va shiddatli kurash tasvirlanadi. Unda, insoniyatning ongli tafakkur va idroki mavjud ekan albatta yaxshilik, ezgulik so‘zsiz, muqarrar ravishda g‘oliblik qilaveradi, yovuzlikning mavh etilishi alohida ta’kidlanadi.

Vaqtlar davrlar silsilasida vujudga kelgan barcha diniy qarashlarda, jumladan, dinga aylangan ta’limot Zardushtiylikda, yaxudiylik, nasroniylik va shunindek islomda ham shu yo‘nalish hukumrondir. Insonning hayotiy fazilatini belgilagan diniy e’tiqod albatta uning dunyoviy fazilatlarini qamramay iloji yo‘q, shu tufayli bizning kundalik hayotimizga qay tarzda ta’sir etganidan kelib chiqib ko‘p hollarda islomiy insonparvarlikka e’tiborimiz alohida qaratiladi. Insonparvarlik haqida fikir yuritar ekanmiz uning dunyoviy va diniy hususiyatlariga alohida e’tibor qarotmog‘imiz kerak. Bugun davlatimiz rahbari Prezident I.A.Karimov so‘zlari bilan aytganda “Insonga naf keltirish oliy baxt”dir demak insonning insonga foyda keltirishi, yordam berishi, yelkadosh bo‘lishi, qo‘llab quvvatlashi, bir so‘z bilan insonparvarlik bizning hayotiy siyosatimizning asosiy fazilatidir. Bunday hislatni to‘ldirgan holda nafaqat dunyoviy balki e’tiqodiy ishonch imonimiz xam buni to‘la aks ettiradi.

Milliy istiqlol g‘oyamizning tamoyillari asosida insonparvarlik fazilatlarimizga to‘xtalib o‘tsak, “Kattaga hurmat kichikka izzat” tamoyillari dastlab kim ekanligimizga aniq ravshan javob bo‘la oladi. Inson o‘zligini

anglashda o‘tmishiga tayanmay turib uning qonun qoidalarini, xatto diniy aqidalarini bilmay, bajarmay turib, ertangi hayoti haqida qayg‘urolmaydi.

Yana bir muhim masala, insoniyat hammaga yaxshi ma’lumki ikki jinsli bo‘lib bu holat ijtimoiy vazifalarni hayot taqozosi bilan taqsimlash holatini joriy etgan. Shu sababdan erkak, ayol munosabatida ijtimoiy mavqeyi masalasida, jamiyat qurilishidagi vazifalar taqsimotidan kelib chiqib ba’zi bir muammolik tafovutlarni keltirib chiqargan. Masalan dini Islomning payg‘ambarimizning faol harakatiga qadar sodir bo‘lgan ayol kishiga nisbatan keskin no‘jo‘ya qarash, ularni kamsitish, xatto tiriklayin ko‘mish razolat bo‘lganligi sir emas. Yoki bizning halqimizga mansub salbiy jihatlardan ayollni aqlan ojiz deb qaragan hurofiy kishilar bo‘lganini hech kim inkor etmaydi. Ammo milliy, diniy fazilatlarimizdagi “Ayol zotiga ehtirom” tamoyilimiz har qanday kamchilik va hatto eng qo‘pol razolatlarni ham batamom tugatdi desak hato bo‘lmaydi. Kanstitutsiyamiz, qonun qoidalarimiz, zamonaviy davr talabi bilan shakillanayotgan qadriyatlarimiz, jamiyatimizda ayollarga nisbatan tenghuquqlilik tartibini keskin amaliyotga kiritib bormoqdaligini ta’kidlamoqchimiz.

Huddi shu zailda barcha qolgan tamoyillarimzni ham sanab o‘tishimiz mumkin, mehnatsevarlilik, jamoa bo‘lib yashash, bag‘rikenglilik, diniy talerantlilik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik va boshqa hislatlarimiz.

Vaholanki biz alohida to‘xtalmoqchi bo‘layotgan narsa insonni inson va umuman insoniyat oldida ulug‘lashga sabab bo‘lguvchi qoida, halollik, poklik, rizq nasibasini mehnat bilan topmoqlikka da’vat etish, barchasi dunyoviyligimizda va shuningdek diniy etiqodimizda mavjuddir. Bu hakida o‘tmishimiz ulug‘ insonlaridan biri Hazrat Baxovuddin Naqshbandning “Dil ba yoru Dast ba kor”ya’ni “Alloh dilingda bo‘lsin, qo‘ling mehnatda” degan shiyori aynan shu mohiyatni o‘zida teran aks ettiradi. Bo‘ndan ham ko‘proq aytish mumkin bo‘lgan insoniytik xususiyatlarimizdan beva bechora, yetim yesirlarni qo‘llab quvatlash dunyoviy jixatdan odamiylikning namoishkorona namoyon bo‘lishi desak, diniy etiqodimizda jannat eshaklarini ochkuvchi kalit deya qabul qilinadi. Shu bilan

birga xalollik poklik, harom luqma kabi razolatni oldini olishda dunyoviy tarzda insof, diyonat, vijdon kabi tushinchalar insonparvarlikni pok bo‘lishida oqillik bo‘lsa, diniy fikir va tushinchalarda bo‘ni aniq ravshan aqidalar bilan beva bechoralarni, yetim yesirlarni norasida go‘daklarni hakiga xiyonat qilish eng og‘ir kechirilmas gunoh xisoblanadi. Insinni inson uchun uning farovo hayoti uchun adolat siymosi shu tarzda o‘z shakli shamoilini topadi.

Kishining otrofdagilarga munosabati, ularning ruhiy jihatlariga ozor bermaslik, dirini og‘ritmaslik, har qanday jaholatni, razolatni, noinsoniy harakatlarni, to‘htatish, oldini olish, gazak olishiga yo‘l qo‘ymaslik barchasi o‘zbek halkining tarixiy, ruhiy fazilatlariga kiradi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Jaholatga qarshi ma’rifat” tushinchasi aynan halqimizning ham dunyoviy, ham diniy insonparvarligini nishonasidir.

Ayniqsa ba’zi bir johil insonlar jamiyatiga mansub “qasos”, “hun” “qonga qon, jonga jon” kabi noinsoniy illatlar, bizga umuman yodligi aniq ko‘rinadi. Biz buni bugungi kunda davlatimiz siyosatidagi xatto og‘ir jinoyatlar sodir etgan jamiyat uchun nuqson bo‘lmish shaxslarga ham kechirimli bo‘layotirligini ko‘rsatmog‘imiz mumkin. Yaqqol ko‘rinadigan va dadil ko‘rsatish, aytish mumkin bo‘lgan tartiblardan “jinoiy javobgarlik uchun qo‘llaniladigan jazolar” ro‘yhatidan “o‘lim hukmiga” maratoriy e’lon qilinganini keltira olamiz. Buning davomi sifatida janjal, nizo, buhuda asab buzishlar, qon to‘kilshar qa’tiy qoralangan holda jinoyat kodekslariga “yarash institunlarini” kiritilishi yengil jinoyatlarga o‘rnini qoplash “ma’naviy kompensatsiya”lash kabi qoidalarni kiritilishini ko‘ramiz.

Bunday holatni yanada chuqurlashtirilib sud tizimidagi adolat tartibini, madaniyatli demokratik davlatlar tajribalaridan kelib chiqib bizning hayot tartibimizga maqbul holatlardan “ayibsizlik prezumsiyasi ” koidalarini, “sanksiya” berish, “gunohkorliligini” isbot qilish, himoyalanish tartibi “advakatlik”ning to‘laqonglik tizimini shakillantirilishi, insonparvarlik davlat siyosati darajasida ekanligini ko‘rsatadi. Shu joyda aytish zarur bo‘lgan holatlardan

yana biri begunoh kishilarni nohaq jazolash, jabr ko‘rishiga yo‘l qo‘yishligiga chek qo‘yilmoqda.

Davlatimiz siyosatining yana bir insonparvarlik jihatini isbotiy dalilini Prezidentimizning Mustaqil O‘zbekistonning rivojlantirish va yangi jamiyat qurish tamoillarining To‘rtinchi qoidasi “quchli ijtimoiy siyosatnning” keng miqyosda amalga oshirilib borish masalasida ko‘ramiz. Bunda jamiyat a’zolarining barchasi, yurtimizdagi kamchilik, qiynchilik, xar qanday inson hayotiga malol kelishi mumkin bo‘lgan holatlar sodir bo‘lishiga qaramay albatta ijtimoiy jihatdan himoyalanishini ko‘rsatadi. Ijtimoiy himoya nafaqat ichki ijtimoiy hayot muammolari, talab, imkoniyatlari, amaliy qilinishi va berilishi zarur bo‘lgan barcha imtiyozlarni kafolatlagan holda, O‘zbekistonnig geosiyosiy manfaatlaridan kelib chiqib, o‘zga davlatlarning yurtimiz va har birimizning manfaatlariga zarar va zid bo‘lgan holatlarda to‘la to‘kis himoya etishdir.

Ta’lim olishda, halqaro standartlarga to‘la javob beradigan tizimni shakillantirilayotgani, uni halqaro hamjamiyat tamonidan tan olinishi, insonparvarlik tamoyilini yuksaklik bilan amalga oshirilayotganini qo‘rsata oladi. 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuning qabul qilinishi. “Sog‘liqni saqlash” to‘g‘risidagi qonun, qaror, farmoyish, qaror tartiblarni qabul qilinishi va so‘zsiz bajarilib borishi “bepul tezkor tibbiy” xizmatning davlat tamonidan kafolatlanishi va uni kim bo‘lishidan qa’tiy nazar har bir fuqaro olishga to‘la haqliligi kafolotlanganligi. Dunyoning qaerida va qaysi davlatida bo‘lishidan qa’tiy nazar O‘zbekiston fuqarosi O‘zbekiston davlati yurisdiksiyasi bilan himoyalanishi va himoya hizmati qafolatlanishi davlatimiz siyosatini ichki va tashqi siyosatidagi mutanosiblik insonparvarlik qoidalariga mosligini isbotidir.

“Biz, - deydi Prezident, - iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma’naviy o‘nglanish, ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish

harakatlari bilan tamomila uyg‘un bo‘lishini istaymiz”<sup>19</sup>. Chunki xalq ma’naviyati o‘nglanmaguncha, na ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, na iqtisodiy sohada jiddiy yangilanishlar quvvatga kirishi qiyin.

Ma’naviyat juda murakkab, serqirra, shu bilan birga xalq diliiga nihoyatda yaqin, tushunarli hodisa. Uni, bir tomondan, soxta «ilmiy» murakkab ta’riflar bilan mavhumlashtirmay, shu bilan bir paytda siyqa, odmi «targ‘ibot»ga aylantirmay, xalq ongiga tiniq yetkazmoq, yosh avlod ruhiga ish qilmoq lozim. Bunda qanday me’yorlarga rioya etish zarurligini 1992 yildayoq O‘zbekiston Prezidenti aniq tavsiflab bergen edi:

“Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

Xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

Insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

Mustaqillik ma’naviyatining asosini tashkil etuvchi bu to‘rt negiz o‘zaro chuqur ichki uyg‘unlikka ega. Shu bilan birga bugungi kun uchun dolzarbliji jihatidan alohida inson shaxsining o‘z ichki imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi masalasi birinchi o‘ringa chiqib turipti.“Erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir”<sup>20</sup>, deb ta’kidladi I.A.Karimov 1999 yili 14 apreldagi ma’ruzasida. Davlatimiz va Prezidentimizning milliy ma’naviyatimizni rivojlantirishga e’tibori, aslida va birinchi navbatda, har bir insonning haqiqiy erkinligini ta’minalashga bo‘lgan asosli e’tiborini ko‘rsatadi. Chunki o‘zligini anglamagan odam, unga qancha imkon va sharoit yaratib bermang, voqeан hur va ozod bo‘la olmaydi. Ammo o‘zligini anglash degani, o‘zining Vatanga, millatga, bashariyatga, Borliq haqiqatiga nisbatini to‘g‘ri belgilay bilish degani, bunga erishish osonlik bilan bo‘lmaydi. “Ma’naviyat asoslari” fani ayni shu yo‘nalishda bilim berishga qaratilgan.

Prezidentning milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish va yosh avlod ma’naviy tarbiyasiga e’tibori keyingi yillarda ham susaygani yo‘q. Uning 2008

---

<sup>26</sup> Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yuk T.-«O‘zbekiston»- 1999,

<sup>20</sup> Islom Karimov. Bunyodkorlik yulidan . 4-jild. T.-«O‘zbekiston»-1996, s.62

yili “Ma’naviyat” nashriyotida chop etilgan “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli alohida risolasi bunga yana bir yorqin dalildir. 4 bob, 174 sahifali bu kitobda “ma’naviyat” tushunchasiga oid Prezidentning oldin bildirgan mulohazalari va ta’riflari chuqurlashtirilgan va mukammallashtirib bir tizimga keltirilgan, ma’naviyatni shakllantiruvchi mezonlar, ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi kabi masalalar keng omma uchun tushunarli shaklda bat afsil bayon qilingan, yuksak ma’naviyatli insonlarning hayotga munosabatlari va ularning ma’naviyati sayoz, hayotga yengil-elpi qarovchi kishilardan farqi ohib ko‘rsatilgan. Prezident o‘z asarida milliy g‘oya va ma’naviyat nisbati, mustaqillik davri jamiyatimizdagi milliy-ma’naviy tiklanish va yuksalish jarayoni, islohotlarning ma’naviy ahamiyati haqidagina emas, balki bugungi kunda jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida ma’naviy tarbiya masalalari naqadar dolzarblashgani va endi bu masalalar faqat milliy hududda chegaralanib qolmay umumbashariy muammoga aylanayotganiga jiddiy e’tibor qaratadi. Prezidentning chuqur ishonchiga ko‘ra, bugun biz ma’naviy tarbiya masalasida aslo beparvo va loqayd bo‘lishga haqqimiz yo‘q<sup>21</sup>, ijtimoiy fanlar sohasida faoliyat olib borayotgan ziyo va ilm ahli bu sohada jiddiy ish olib borishi va jahon miqyosida avj olib borayotgan ma’naviy va axloqiy jaholatga qarshi ajdodlarimiz bizga meros qoldirgan milliy ma’naviyatimizning qudratli kuchidan barcha ma’rifiy vositalarni ishga solib unumli foydalanishlari kerak<sup>22</sup>. Dunyodagi eng buyuk jasorat ma’naviy jasoratdir, deb xulosa qiladi I.Karimov va yosh avlodning ma’naviy tarbiyasini Vatan taraqqiyotining mustahkam poydevori sifatida baholaydi. Bu kitob mazmunini bir fasl doirasida bayon qilish imkonи yo‘q, shu sababli ushbu qo‘llanma to‘lig‘icha Prezident asaridagi g‘oyalar asosiga qurildi.

Milliy ahillik bor joyda Har qanday o‘z-o‘zini anglash real hayot vaziyatlariga muvofiq tarzda muayyan harakat va faoliyat yo‘nalishini tanlash asosida boradi. Bunda shaxs dunyoqarashi, hayot ma’nosini to‘g‘ri anglashi

---

<sup>21</sup>I.Karimov. Yuksak mahnaviyat – yengilmas kuch. T., “Mahnaviyat”, 2016. S.4, 15, 116.

<sup>22</sup> I.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot – pirovard maqsadimiz. T.-«O‘zbekiston»- 2000

asosida maqsad-muddaolar belgilashga ko‘p narsa bog‘liq bo‘ladi. Turli yo‘llardan qay birini tanlash, mavjud imkoniyatlarni anglab, uni voqe’likka aylantirish yo‘llari, vositalarini belgilash bevosita shaxslarning hayot ma’nosini to‘g‘ri anglashlari bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Ilmiy salohiyati kuchli, falsafiy mushohada qilish quvvatiga ega shaxslar harakat va faoliyat yo‘nalishini to‘g‘ri belgilab, ularni milliy qadriyatlar majmuasi bilan bog‘lay oladilar.

Milliy g‘urur, milliy faxr, millat sha’nini yuksaltirshda xar tomonlama yetuk bo‘lgan komil insonlarning, yetuk shaxslarning roli katta bo‘lib kelgan. Yetuk va komil insonlar millatarvarlik, vatanparvarlik, fidoiylik fazilatlarini ixtiyoriy holda egallaydilar va ulardan ongli holda foydalana oladilar.

«Milliy ma’naviyat desak, milliy biqiqlikka yo‘l qo‘yamiz, umuminsoniy ma’naviyat haqida fikr yuritish kerak», degan gapni na ma’naviyat nimaligini, na milliylik va umuminsoniylik orasidagi nisbat qanday bo‘lishini to‘g‘ri tasavvur eta olmaydigan, ilmiy savodi chala odamlargina aytishi mumkin. Bir insonga o‘z milliy ma’naviyatini tugal anglab yetish uchun ham, Alloh yuz yil umr bersa, kamlik qiladi. Hindiston madaniyatidan bir chimdim, Yevropa ilmidan ikki jumla, islom dunyosi ma’naviy merosidan ikki cho‘qim olib, «jahonshumul» ma’naviyat nazariyasiga da’vo qilgandan ko‘ra, o‘zbek yurtida yashab o‘tgan buyuk allomalar ijodini imkon darajasida izchil o‘rganib, shu bilimlar asosida milliy ma’naviyat haqida fikr yuritgan afzal emasmi? Biz «ma’naviyat nima?» degan savolga nemis yohud ingliz, rus yoki polyak, hind yoki yapon qanday javob berishi mumkinligini bashorat qila olmaymiz. Umr bo‘yi milliy ma’naviyatini, uzoq asrlar davomida o‘z millati mansub bo‘lgan mintaqqa madaniyati vakillari ijodini asl manbalardan o‘rganib kelgan odam ham milliy ma’naviyatimizni mukammal anglab yetdim, deb da’vo qilishga xijolat bo‘ladi. Bu ish aslida ko‘pchilikning ishi. Millat ma’naviyati uchun butun millat qayg‘urishi kerak.

Ma’lumki, har bir millat, har bir xalq o‘z hayot tarzini, kelajagini ajdodlarining tarixiy tajribasi asosiga quradi, hech bir xalq begona qoliplar, begona andozalar asosida emin-erkin yashab, taraqqiy eta olmaydi. “Odamzod birovning

bo‘yiga qarab o‘ziga to‘n bichmaydi”, deydi Yurtboshimiz<sup>23</sup>. Har bir xonadonning o‘z tartib-qoidalari bo‘lganidek, har bir yurt hayotini tashkil etishning ham o‘z andoza-o‘lchovlari, qonun-qoidalari bo‘ladi. Ular o‘sha yurtning tabiiy-jo‘g‘rofiy shart-sharoiti, tarixiy tajribasi, milliy fe’l-atvori bilan bog‘liq tarzda shakllanadi. Ming yillar davomida yer yuzidagi turli mintaqalarda yashagan xalqlarning o‘zaro siyosiy, madaniy, ijtimoiy aloqalari hozirdagidek yaqin bo‘lgan emas. Asrlar mobaynida yer yuzida turli madaniy mintaqalar shakllangan. Yevropa xalqlarining umummintaqa madaniyati, janubi-sharqiy Osiyo xalqlari mintaqasi madaniyati, Hindiston yarimoroli va unga qo‘shti hundlarda yaratilgan umumiyligi madaniyat va boshqa bir qator mintaqalar madaniyati - bularning har biri o‘zgasidan farq qiluvchi qator diniy e’tiqod, falsafiy maktablar, san’at va adabiyot, urf-odat va an’analarning o‘ziga xos uyg‘un bir tizimlarini vujudga keltirgan-ki, ahli basharning bunday beباho mulkini, ma’naviy xazinalarini befarqlik bilan bir-biriga qorishtirib yuborishimiz mutlaqo ijobiy natijalar bermaydi. Hech qachon bir inson haqiqatning tagiga yetgan emas. Chunki borliq haqiqati – cheksiz. Uni anglab yetish uchun, birinchidan, shu kungacha insoniyat erishgan barcha yutuqlarni o‘zlashtirish lozim bo‘ladi Ammo butun insoniyat yaratib qoldirgan ilmiy merosni mukammal o‘zlashtirish bir kishi uchungina emas, hatto kattaroq ilmiy jamoalar uchun ham og‘irlilik qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar har bir millat ma’naviyatida o‘ziga xos va maxsus tizim shaklida namoyon bo‘ladi. Chunki milliy ma’naviyat tarixiy hodisa, o‘zbekning ma’naviy takomili nemis yoki xitoy xalqi boshidan kechirgan tarixiy jarayonlardan butkul farq qiluvchi siyosiy-madaniy makon va zamonda yuz bergen. Har bir xalq mohiyatan umuminsoniy bo‘lgan qadriyatlarni tamomila o‘ziga xos shaklu shamoyilda ifoda etishining siri shu yerda. Zohirbinlar ayni shu tashqi farqlarga e’tibor qaratib g‘avg‘o ko‘taradilar, ahli dillar botiniy uyg‘unlikni muhim hisoblashadi.

---

<sup>23</sup> I.Karimov. Yuksak mahnaviyat – yengilmas kuch. T., “Mahnaviyat”, 2016. b.12

Turli millatlar ma'naviyatining o'ziga xosligi turli ranglar tovlanishiga monand bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi, ammo inkor etmaydi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat ellarni zidlashtirmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, bu qadriyatlarni har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi bilan asta-sekin shakllantirib boradi va o'zaro turlicha munosabatlar jarayonida elatlar, millatlar bir-birini tushunib, o'zaro ma'naviyatlaridagi umumiyligi jihatlarni tadrijiy anglab boradi.

O'z-o'zini va milliy o'zlikni anglash tanlab olgan yo'naliш ta'sirida ideallik parchalanadi. Bir tomondan milliy o'zlikni anglash darajasidagi shakllangan tasavvuri bo'yicha o'z millati va uning ma'naviy qadriyatlarini boshqa millat vakillarinkidan afzal deb biladi. Millat boshqa millatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa aloqalarda bo'lmay, rivojana olmasligini, demak, ular o'zgalar qadriyatlarini ham hurmatlamay yashay olmasligini anglaydi. Bu milliy o'zlikni anglash rivojidagi birinchi ziddiyatdir. Ikkinchi ziddiyat shundan iboratki, bir mamlakat ichida boshqa millatlarga mansub odamlar, ularning uyushmalari mavjud bo'lib, muayyan respublika, davlat nomi bilan atalgan va tub aholini tashkil etgan tub millat o'rtaсидаги munosabatlarda paydo bo'ladigan ziddiyatlardir. Ilmiy falsafa nuqtaiy nazaridan, barcha sohada ziddiyatlar bo'ladi va ular harakatlar manbai hisoblanadi. Muhimi, mavjud milliy ziddiyatlar o'zining qarama-qarshi tomonlariga og'ib ketishiga yo'l qo'ymaslikdir. O'zbekistonda tub millat hisoblangan o'zbeklar boshqa millatlar oldida juda katta ma'suliyatli ekanini doimo esda tutishlari shular bilan izohlanadi.

Milliy o'zlikni anglagan, uning sha'nini ulug'laydigan shaxslar buni yaxshi his etadilar va milliy zamindagi ziddiyatlar o'zining qarama-qarshi tomoniga og'ib ketmasligi uchun kurashadilar va shunga erishadilar.

Milliy o'zlikni anglashdagi tavofutlar, milliy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni milliy davlat, jamiyatdagi siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, jamoat va nodavlat tashkilotlari, ma'naviyat va ma'rifat muassasalari, butun jamoatchilik kuchi bilan qadam-baqadam hal etib borish o'z-

o‘zini va milliy o‘zlikni anglayotgan, uni chuqurlashtirayotgan individual va ijtimoiy ongning to‘g‘ri ijtimoiy yo‘nalish olishi uchun kafolatdir.

#### **4. Manfaatlar tizimi va milliy istiqlol mafkurasi falsafiy tizimining o‘zaro ta’siri**

O‘zbekistonning mustaqil davlat qurish tartibiga o‘ta boshlab, uni shakillantirish ostonasida davlat raxbarimizning dastlabki odimlarida, qilingan o‘zgarish va yangiliklarida eng oliy maqsad qilib insonnig, halqning manfaati namoyon bo‘ladi. Bunda bozor munosabatlarigi o‘tish, mamlakat aholisining tafakkurini, ishlash, yashash tarzini shakillantirish talabini bajarishga qaratilgan qator g‘oyalar va bular asosida amaliy ishlar amalga oshirila bordi.

O‘zbekiston sharoitida islohatlarni fuqarolarning ehtiyoji va manfaatlari, mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi hayotiy extiyojlarning qondirilishi uchun va shu orqali umumdjavlat manfaatlarini ifodalagan holda mavjud imkoniyatldardan kelib chiqib, davlatning bosh islo Hatchiligi asosida sifatiy yangi ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar yuzaga kelmoqda va shakillanmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov tabiri va so‘zлari bilan aytganda, “Davlat bugun halqning manfaatlarini ko‘zlaydi, islohatlar jarayonining yetakchi yo‘nalishlarini belgilash, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy siyosiy hayotida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqish va izchil ro‘yobga chiqarish kerak”.

Eng avvalo madaniy ma’rifiy taraqqiyot jamiyat ehtiyoji va manfaatning asosi bo‘lishi zarurki bunda insonlarning hayoti mutanosiblashishi namoyon bo‘lishiga yaxshi imkoniyat yaratiladi. Binobarin jamiyat a’zolarining yashash tarzida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ma’naviy merosi asosidagi boyliklari, ming ming yillar davomida, madaniy manba sifatida saqlanib,to‘ldirib, xalqni boyitib unga hizmat qilib kelgan. Bunda manfaat birinchi o‘rinda turganga o‘xshab ko‘ringani bilan, nima qilinganda ham, falsafiy fikir qilinsa ma’naviyat asosiy, poydevoriy mavqeyiga ega ekanligi ko‘rinadi, chunki insonning manfaatlari uning ma’naviy timsolidan, ruhiyatidan kelib chiqib shakillanadi.

Hayotiy ehtiyoj bo‘lgan xalq qadriyatlari, urf odatlari, udumlari, sha’riy qonun qoidalari, boy ma’naviyati avvaldan ham, hozirda ham kishilarga, xususan

yoshlarga insonparvarlik, vatanparvarlik, bag‘rikenglak, tolerantlik ruhida tarbiya olishlarida muhim va shaksiz ahamiyat kasb etadi. Bu xislat jamiyat manfaatining tabiiy ehtiyojidir, negaki inson ijtimoiy mavjudod ekan avvalo o‘ziga so‘ng o‘zgalarga nisbatan manfaatini ma’naviy ma’rifiy jihatlarini tartibga keltirib o‘zgalar bilan hisoblashishini shart qilib qo‘yadi. Agar manfaatlar moslashmasa har bir e’tirozchi yoki zo‘ravonlik bilan boshqalarning manfaatlarini e’tiborsiz qoldirishga harakat qilayotganlarning umriga zavol bo‘lishi muqarrardir.

Bu hayot talabidan kelib chaqadigan haqiqat biz hamisha amal qiladigan tamoyiliga, jamiyat rivojining asosi va tabiatiga va shartiga aylanmog‘i hamda o‘zida yahlit bir tizimni mujassam etmog‘i lozim. Bu tartib va tizim markazida ma’naviyat, ahloq odob, ma’rifat kabi abadiy umuminsoniy va milliy qadriyatlar yotmog‘i kerak. Bu kadriyatlarning tabiatiga kelib chiqishiga e’tibor bergen kishi aynan o‘sha jamiyatning manfaatlari nimadan iborat ekanligiga javob oladi, vaholanki aynan o‘sha manffatlar ularning shakillanishida, rivojlanishida va amaliy hayotda joriy bo‘lib turishda asosiy rol o‘ynab o‘z o‘rnini tutib boradi. To‘g‘ri zamontalabi bilan, davr o‘zgarishlari bilan ular ham shakli shamoyilini o‘zgartirishi mumkin, faqat shaklini xalos, mazmun mohiyatini, kishilar hayotidagi o‘rnini o‘zgartirmaydi, negaki u manfaatlarni mahsulidir.

Madomiki inson, shaxs tarbiyasida, o‘zligini shakillanishida, g‘oya va manfaatlar mushtarakligi yetakchilik qilar ekan, bu ikki ijtimoiy falsafiy kategoriya qiskacha izoh berib o‘tish masalani mohiyatini chuqurroq anglab olishga imkoniyat beradi, deb o‘ylaymiz. G‘oyalarga berilgan tariflarning barchasini birma bir qayta takrorlab sanash ehtiyoji yo‘qligini hisobga olgan holda, g‘oya tushinchasiga o‘z fikrimizni quydagicha tariflamoqchimiz. “G‘oya muayyan bir shaxs idrokida vujudga keladigan, yaralib, insonlar, xalq, millat va mumkin bo‘lsa, jamiyat manfaatlari intilish orzularini nomoyon etganligi sababli qabul qilingani uchun, qullab quvatlanib ijtimoiy, jamoat manfaatlarini ifodalovchi fikir shakliga aylanadi.” (muallif). Ma’lumki har qanday fikr ham g‘oya bo‘la olmaydi, Faqat aksariyat ko‘pchilikning maqsad muddaosi, manfaatiga mos va hos

tushgan fikirgina g‘oyaga aylanish imkoniyatiga ega bo‘la oladi. Bunday g‘oyalarning uzoq vaqtlar va davrlar maboynidagi yashab kelishi uchun esa ularning yolg‘iz ezgu niyyat va ezgu amalga qurilgan asoslangan bo‘lishi shart deb bilamiz.

Aynan milliy g‘oya halqni tub manfaatlarini ifoda etadigan va ifoda eta oladigan, barcha ezgu niyyatlarga javob bera oladigan , uni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari sari birlashtirib yetaklaydagan va safarbar eta oladigan imkoniyatga egadir. Bugunda O‘zbekiston halqi Milliy istiqlol g‘oyasining tabiat shundan iboratdir.

Shu o‘rinda “Milliy g‘oya” “Mafkura” tushunchalari bilan birga ideologiya terminiga ham biroz tahliliy fikr berish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz, negaki Sobiq Ittifoq davrida jamiyat “qulog‘iga” o‘rnashib qolgan bu atama milliy mafkuramizni boshqa mafkuralarni prinsipial holda farqlanishini tushinishga imkon beradi. Ideologiya yakka xukumronlik qilgan davorda unga nisbatan na muholif, na raqib, na ikkinchi darajali g‘oya u yoqda tursin fikir, hatto “noo‘rin” so‘z ham bo‘lishi mumkin emas edi. “Kommunistik” g‘oya’ning “beshakliliga” shubha keltirishi mumkin bo‘lgan har qanday nomutanosib so‘z tugil imo ham tag tomiri bilan yo‘q qilinar edi, shu bois ham ideologiya atamasi salbiy shakilga kirib qoldi. Aslidachi, “Ideologiya” atamasi qadimgi Yunonistonda kelib chiqqan bo‘lib, u bizning tilimizga tarjima qilinganda “G‘oyalar xaqidagi ta’limot” ( grek,-idea - “ko‘rinib turgan”, (grek) -logos- so‘z, tushinchasi ) manosi kelib chiqadi. Bu atama hozirgi mazmunini 18, 19 asrlarda kasb etib fan sifatida shakillana boshlagan edi, ammo XX asr inqilobiy kurashlar davri bu terminning kurashuvchanlik, buzg‘unchilik shaklini bera boshlaganlari unga nisbatan jamiyat fikrini salbilashishiga olib keldi, vaholanki so‘zda uning manosida hech qanday salbiylik mavjud emas.

Fikrlarimizning xulosalaydigan bo‘lsak inson tili, gapi, so‘zlashi, uning muloim yoki qo‘pol chiqishiga qarmay avvalo, kishilar manfaati ezgu kechinma va orzu intilishlari bilan mos bo‘lmog‘i zarur. Aks xolda g‘oya vaqtlar o‘tishi bilan mohiyatan salbiy oqibatlarni keltiri b chiqara boshlaydi, natijada keltirilgan

zararli narsalar insonlarga malol kelishiga olib boradi. Bunday yokimsiz va keraksiz natija jamiyatni buzishi, odamlar o'rtasiga tushinmovchilik va bo'linish, bu esa o'z vaqtida nizolarni keltirib chiqara boshlayda, jamiyat buzg'inchilik sharoitiga o'tib qolganini o'zi payqamagan holda yarativchilikdan bo'zg'unchilik tarafiga o'it boradi. Afsuslanadigani shundaki bunda ham kimningdir manfaati bordek tuyulishi uni saqlanib turishiga, yomoni har qanday yo'l bilan hatto razolar bilan ham, harakat bo'laveradi. Ezgulik uchun farovon hayotgi intilish tabiatida vujudga kelgan manfaatlar asosidagi milliy g'oya buzg'unchilik shakliga kiradi qoladi.

Bunda birinchi galda madaniyat, "sivilizatsiyalashish" insonlarning hayotiy o'zgarshlarining asosi, poydevori bo'lishi zarur. Sivilizatsiyalashmagan ya'ni zo'ravonlik va hurofot, jaholatdan kutilmay turib madaniylashishga shoshilgan kishilar muqarrar hato qilishlari mumkin, bu esa talofat, buzg'unchilik, urush va manfaatlar qarama karshiligidagi olib boradi.

Deyarli bir yarim asrlik mustamlaka, qaramlik, tushkunlik va huquqsizlik sharoitidan halqimiz 1991 yil 31 avgust kuni Prezident I.A.Karimovning qilgan harakatlari va qo'rqlmay aytish mumkinki jasorati ila mustaqillikka erishishda O'zbekiston ozod va obod vatan barpo etish, erkin va farovon turmush vujudga keltirish, demokratik tamoiyllarga asoslangan, har tamonlama mukammal halq milliy o'zligiga tayangan, milliy istiqlol konsepsiyasini shakillantirib ularning quvvatida yangi hayot qurish sari odimlay boshlashi darkor edi.

Bunda siyosiy, iktisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy zaminlar va podevor bo'lishi zarurati birincha galdag'i masala bo'lsa, halqni yangi xayot talabli atrofiga birlashtiruvchi g'oya talab etilardi. Mafkura jamiyat tuzilishi, rivojlanish yo'llarining g'oyaviy nazariy tizimi bo'lib, har qanday davlatning rivojlanishi, yuksalishi bevosita shu davlatning farovon turmushining shakillantirilishi, moddiy tamondan baquvatlanishi, ma'naviy dunyoqarashning o'sishi shu davlat olib boradigan mafkuranin hosilasi sifatida yuzaga kelishini tasavvchur qilmoq darkor. Shu bilan birga mafkurani mutloqlashtirish, uni hukumronlik shohsuppasigi

chiqarmoklik, bo‘lib ham yakka mafkkura zo‘ravonligini joriy etish, siyosiy tizimda na faqat demokratiya’ni balki milliy o‘zlikni ham muqarrar barbrd etadi. Ayniqsa mafkurani mutloqlashtirish tarixdang ma’lumki kishilik jamiatlarining boshiga misli ko‘rilmagan balo qazolarti keltirib solgan. Mafkura progressiv, real vokeylikni bevosita tahlil qilinib, yakuniy hulosalar holisona tarzda erkin ifodalanishi mavhum savollargi aniq javod berishi, orqaligina amaliy jihatdar qabul qilinishi mumkin. U xech qachon tor driradigi ichki, yolg‘iz shahsiy manfaatlar manbaiy bo‘lib qolishi mumkin emas. Bunday muammolarni bartaraf etilishida demokratiya tamoillarining barchasi suzsis o‘z quvvatigi ega bo‘lmishi talab etiladi, bular jamiyat a’zolarining barchasini barqa hayotiy xolatlarda tenghuquqli bo‘lishi kafolati, jamiyat kishilarining o‘z hayoti egasi sifatida erkin bo‘lishi, yurtning yashash voqeyleklariga va barcha holatlariga nisbatan har bir insonning o‘z fikriga ega bo‘lish mumkinligi, oddiy qilib aytilganda fikirlar hilma hilligi. Shuningdek siyosiy erikinliklarning amaliy tula imkoniyat asosida yaratilishi, fuqarolar o‘z huquqlarini faol va passiv, istaklariga qarab bajara olishi. Iqtisodoy imkoniyatlarning barchaga teng yaratilishi va ularning qonun bilan qafolatlanishi. Ijtimoiy jahatdan jamiyat a’zolarining kim va qanday bo‘lishidan qa’tiy nazar himoyaga qalatlangan tarzda egaligi. Shunda mafkura haqqoniy milliy o‘zlik tabiatida qurilgan deya olish mumkin.

O‘zbekistonni mustaqillik mafkkurasi asriy milliy qadriyatlarimiz, halq tafakkurida, ruhiy shijoatida, vujadga kelgan va kelayotgan yangi yangi fikirlar, tajribalar asosida uni to‘htolvsiz boiytib borishi zarur, shundoq ham bo‘lmoqda. Buni Prezidentimizning har bir chiqishida, har bir asarida, har bir qaror va qarmonida, har bir tasho‘abbusida ko‘rish mumking. Prezident I.A.Karimov halq fikirlarining jamlovchi va to‘g‘ri xulosalovchisi desa mutlaqo hato bo‘lmaydi. Amir Temur mashvaratlarining natijasi o‘laroq o‘z davroida o‘lkan jahonshumul ahamiyat kasb etgan o‘lkan sultanat yaratdi, Bugun O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat deya tarif etilaytgan so‘zlarni aytgan I.A.Karimov ham ulug‘ ishning boshlovchisidir. Chunki O‘zbekiston Respublikasini yuksalishda halqlarni

safarbar ettirishda muayyan vazifani ado etmoqda. Milliy istiqlol mafkurasi mustaqillikni har tamonlama mustahkamlaydi va milliy taraqqiyot rivojini ta'minlashga hizmat qiladi.

Milliy istiqlol mafkurasini hayotga keng joriy etish uchun ushbu mafkuraning mohiyatini, maqsadlarini, o'zigi hos hususiyatlarini bilishni o'zlashtirib olish zarur. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek "yangi mafkuraning asl ma'nosи eskichcha aqidalardan xoli bo'lgan, mustaqil va yangicha fikirlovchi kilisharni tarbiyalashdan iborat. Bugun respublikamizda ma'naviy barkamol insonni shakillantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xozirgi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasida ikkita kuchning o'zaro kurashishini kuramiz, birinchisi taraqqiyotga intilayotgan xalqlarning ilg'or mafkurasi,

ikkinchisi ularning yo'liga g'ov bo'layotgan va bo'lishga intilayotgan zararli buzg'unchi, tajovuskor mafkuralardir.

Mustaqillik istebdot tuzimini ham ma'naviy ham g'oyaviy ta'siridan, bu ta'sir mafkurasini dunyoqarash chegarasidan halos etilmagan mingshlab kishilarning ko'zini ochdi. Lekin shu bilan birga ayrim g'alamis, dinni niqob qilib olgan to'dalar insondagi ezgulikni, insonparvarlikni, odobu axloqni, bulchu sadoqatni, saxovat va muruvatni kamol toptirish kerak bo'lgan diniy fikirlarni o'zlarining tor gurihi manfatlari yo'lida hizmat kildirishga urinishlar sodir bo'ldi. Buni xozirda tula to'htadi deya olishimiz hato bo'lar edi. Dinga, diniy etiqodlarning chuqur xis tuyg'ulari, sof olivjanob imonlariga tula qonli hurmat, ayni vaqtda sohta dindorlar islom dinini siyosatlashtirilib, diniy mafkurani yaratishga urtnayotganlarga qarshi kurash olib bormoq lozim. Ular xali ongi shakllanib ulgurmagan, g'oyaviy sust yoshlarni o'z ona Vataniga g'anim qilib qoyishmoqda.

Davlatimizda milliy manfaatlarimizga mos mafkurani yaratish vazifasi qoyildi. Ijtimoiy tafakkurni o'zgartirish zaruriyati dolzarb vazifaga aylantirilmoqda. Mamlakatimizda milliy davlatchilik an'analari qayta tiklanmoqda, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat yangi yuksaklikka ko'tarilmoqda. Milliy mafkura

xalqimizningazaliy an'anaari, tili, udumlari va ruxiyatiga asoslangan xolda keljakka ishonch, insof, imon,adolat, sabr toqat, marifat tuyg'ularint singdirib bormoqda.

Milliy o‘z-o‘zini anglash mavjud moddiy va ma’naviy xaminlardan iborat bo‘lgan yetnik birlik, davlat, til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarga mansubligini , manfaatlar va yextiyojlar umumiyligini tushinib yetishga aytildi. Bular xam milliy istiqlol mafkurasining maxsulidir.

O‘z-o‘zini anglash millat birligini mustaxkamlash va millat manfaatlariing ustivor bo‘lishini anglashdir. O‘zlikni anglash millatning til, davlat, xudud yagonaligini ma’rifatdagi, madaniyatdagi o‘ziga hosligidan iborat mutaqil belgilarga ega bo‘lishdir.Bu ham milliy istiqlol mafkurasining zaminidir.

Milliy o‘z o‘zini anglash bu millatning manfaatlariga mos bo‘lgan, sha’ni, qadr kimmati, obru e’tibori, gururini poymol etishga qarshi qaratilgan faoliyatga, millatning barcha vakillari birlashishiga, xatto millatning ichida davlat taraqqiyotiga, tuzilishiga qarshi biron yot g‘oya bo‘lib qolgan taqdirda davlat qadr kimmati, milliy g‘urur, obru e’tiborini himoya qilish yo‘lida birlashishdir.Shuningdek, milliy o‘zlikni anglash milliy g‘oyalarni yaratuvchanlik saloxiyatiga egaligidir. Milliy o‘z o‘zini anglash bu faqat milliy manfaatlarni ximoya qilish bilan cheklinmay, balki milliy taraqqiyot jarayonini sodir etish bilan ham bog‘liqdir. Millatning, halqning kuch qudrati uni sonida emas, balki siyosiy yetukligida, milliy g‘oyaga ega bo‘lishi, milliy g‘urur, milliy oriyati, milliy tuyg‘uning qandayligida va o‘z o‘zini anglab yetganligida ko‘rinadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov “Ma’naviy yuksalish yo‘lidan” nomli asarida ta’kidlaganidek; “Mafkura xalqimizda, o‘zining qudrati va himoyasiga suyangan holda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib jaxon hamjamiyatidagi davlatlar orasidan teng huquqli ularoq, munosib o‘rin egallahisiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog‘i kerak<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: “O’zbekiston”, 2011.

Binobarin davlatning milliy mafkurasi asosida siyosiy partiyalar va tashkilotlar o‘z mafkuraviy ishlarini amalga oshiradilar. Siyosiy partiyalar soni qancha bo‘lishidan qa’tiy nazar ularning asosiy vazifasi umummilliy, umumdalat mafkurasini hayotda u yoki bu shakilda tadbiq etishdan iboratdir. O‘zbekistonda faol ish olib borayotgan partiyalarning soni bugun to‘rttaga yetqanligi ma’lum, har bir partiya o‘z maqsad vazifasini, partiya’ning Nizomi, Dasturida keltirilgang fikirga, g‘oyalarga jaylar ekan, barchasi a’zolarining manfaatlardan kelib chiqadi. Partiya a’zolarining manfaatlari O‘zbekiston xalqi, millati, el yurt, jamiyat, va har bir shahs manfaatlarini nomoyonidir. Demak milliy istiqlol mafkurasining mohiyati halq mafaatlari bilan o‘zviy bog‘liqdir. Shuning uchun ular o‘z maqsadlarini turli usullardan va yo‘llardan foydalanilgan holda bajarib boradilar. Eng asosiysi barchasining maqsadining mohiyatan birligidadir.

Milliy Mustaqillik mafkurasini shakillantirish, boiytish va uning hayotimizda ustivor bo‘lishiga erishishda mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi alohada kuch g‘ayrat ko‘rsatishalri lozim. Shuningdek, bu jabxada respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi, “Kamolot” ijtimoiy xarakat, “Mahalla”, “Nuroniy”, “Oltin meros” jamg‘armalari, Xotin qizlar qo‘mitalari, turli hil ijtimoy va jamoatchilik harakatlari singari tashkilotlari faol kamarbasta bo‘lishlari zarur.

Aynan shunday mafkuragini milliy jipslikni, taraqqiyotni davlatchiligidizning tom ma’noda buyuk kelajagini ta’minlaydi.

Aytilganlardan xulosa shuki, o‘z milliy ma’naviyatimizni tiklashga astoydil kirishganimiz aslo o‘zgaga g‘ayirlik ma’nosini bildirmaydi, balki umumbashariy muvozanatni, uyg‘unlikni, demakki,adolatni tiklashga urinishdir. Zotan, uyg‘unlik buzilsa, bashar ma’naviyati ham to‘kis bo‘lmaydi. Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilmog‘i lozim. Dushmanlik, g‘ayr ko‘zi bilan qarash emas, mehr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug‘ haqiqatni bizning ajdodlarimiz

allaqachon anglab yetganlar. Ammo o‘zgani tushunish uchun, o‘zgaga mehr ko‘zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o‘zligini anglab yetmog‘i kerak. O‘zligini anglamagan zot hech qachon o‘zgani tushunmaydi, uni xolis qabul qilmaydi. Asli milliy ma’naviyatimizga bugungi ayricha e’tibor ham ushbu o‘zligimizni anglab yetishga bo‘lgan kuchli ehtiyoj natijasidir.

Ma’naviyat doimo milliy bo‘ladi, shu bilan birga unda umuminsoniy qadriyatlarga zid narsa ham bo‘lmaydi, chunki har bir millatning mustaqil ma’naviy dunyosi, ma’naviy qiyofasi bir paytning o‘zida ichki mohiyatiga, o‘zak tomirlariga ko‘ra, o‘zga xalqlar ma’naviyati bilan umumiy jihatlarga, butun bashariyatni birlashtirib turuvchi mushtarak unsurlarga ega bo‘ladi. Ma’naviyatning yuqorida eslab o‘tilgan ta’rifini millat ma’naviyatiga tatbiq etadigan bo‘lsak, uni bemalol millat ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlik, deb atash joizdir. Shunday ekan, ayni millatimizni o‘zga millatlardan ajratib turuvchi mohiyatlar emas, balki birlashtiruvchi omillar milliy ma’naviyat zamirini tashkil etadi. Faqat buni jo‘n tushunish ham, jo‘nlashtirib talqin etish ham –xato. Ma’naviyatimizdagi eng umuminsoniy g‘oyalar ham nihoyatda milliy bir tarzda o‘zligini namoyon qiladi, ular boshqa millat ma’naviyati unsurlaridan nusxa ko‘chirish shaklida namoyon bo‘lmaydi.

Biz milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo‘lsak, butun insoniyat manfaatlari nuqtai nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz majmuini yaxlit uyg‘unlikda olib qaramog‘imiz talab etiladi. Agar shu uyg‘unlikka mohiyatan muvofiq bo‘lsa, yoxud loaqla unga zid bo‘lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug‘dirsa, nifoq solsa, yoki o‘zga shaxs erkini bo‘g‘sa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo‘lsa, demak, maqbul emas. Ammo bir narsani esdan chiqarmaylik: biz milliy ma’naviyatimizni qadrlasak, uni rivojlantirishga urinsak, qaysidir o‘zga xalqlar, siyosiy kuchlar, bizdan gumondor bo‘lishi mumkin, bizning tilimiz, dinimiz, kiygan kiyimiz yoki urf-odatlarimiz ularning didiga o‘tirishmasligi, tanlagan mustaqil yo‘limiz ular nazarda tutgan qoliplarga mos

kelmay qolishi mumkin deb, oshiqcha «andisha»larga berilsak, demak, bu hanuz ongimizdagi qaramlik asoratidir. Ko‘nglimizda Haq nuri bilan bir ishga jazm qilar ekanmiz, o‘zgalarning noo‘rin shubha-gumonlari bilan hisoblashish, chumchuqdan qo‘rqib tariq ekmaslik bilan barobar.

Yevropa xalqlari ijtimoiy va madaniy sohalarda o‘z tarixiy tajribalaridan kelib chiqib, ajdodlari qoldirgan merosga mos qilib, ilmiy andoza va o‘lchovlar yaratganlar, ta’rif va tizimlar shakllantirganlar. Agar ular yaratgan meros ta’sirida, unga ergashib boshqa bir xalq madaniy boylik hosil qilgan bo‘lsa (masalan, sovet davrida SSSR xalqlari vakillari yaratgan ko‘pchilik asarlarni olaylik), albatta, Yevropa madaniyati andoza va o‘lchovlarini unga tadbiq etsa bo‘lar. Ammo o‘zbekning milliy tafakkuri oxirgi 70 yilda shakllangan deb bo‘lmaganidek, bugun endi ijtimoiyot mavzularida ilmiy mulohazalar yuritish uchun ongimizga kechagi zo‘raki joylashtirilgan sun’iy qoliplardan o‘ylamay-netmay foydalanishga urinishimiz ham o‘rinli emas.

Mavhum bir shakldagi umuminsoniy madaniyat, umuminsoniy ma’naviyat hayotda asli mavjud emas, jahon madaniyati turli o‘lka va mintaqalarning o‘ziga xos madaniyatlari majmuidan iborat. Qanday millat, qanday xalq bo‘lmasin, baribir, uni muayyan insonlar tashkil etadi. Insonlarning har biri o‘z qiyofasi, o‘z fe’l-atvori, fikr-andishalari, o‘z hayot yo‘li va orzu-niyatlariga ega. Ammo ularning barchasi Alloh yaratgan mahluqotning bir toifasi - bani odamga mansub bo‘lgani tufayli ularning barchasi uchun umumiyl bo‘lgan muayyan qadriyatlar majmui ham mavjuddir. Bu qadriyatlar har bir millat, har bir inson uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ko‘r-ko‘rona inkor etilishi, tan olinmasligi butun bashariyat uchun halokatli bo‘lishi mumkinligini jahon tarixi tajribasi ko‘p marta isbotlagan. Albatta, bunday qadriyatlar barcha insonlar, barcha millatlar tomonidan birdaniga, azal-ibtidodan anglab yetilgan, idrok qilingan deb bo‘lmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar har bir millatning ma’naviy mulkiga aylanishi uchun asrlar, balki ming yillar kerak bo‘ldi. Xatto bugun ham barcha insonlar, barcha elat va toifalar ularni tugal anglab yetgan, deyish qiyin.

Masalan, eng asosiy umuminsoniy qadriyat - har bir dunyo yuziga kelgan insonning yashash huquqini olaylik. Barcha ilohiy kitoblar insonning yashash huquqini himoya qiladi, o‘zgalarga nohaq ozor yetkazmaslikka, insonni nobud etmaslikka chaqiradi. Ammo insonlar doimo ushbu da’vatga rioya etib kelmoqdam? Qaytaga, astag‘furullo, o‘sha kitoblar qatidan o‘zlariga maqbul bo‘lмаган о‘зга инсонларни ўо‘қ қилиш учун фатвolar izlaydilar, o‘zlarini “musulmon”, o‘zgalarni “kofir” deb e’lon qiladilar. Holbuki, insonlar e’tiqodi haqida hukm chiqarish faqat Allohga tegishlidir. Alloh hatto o‘z payg‘ambarlariga ham o‘zgalar ustidan hukm chiqarish huquqini bergen emas, Allohning rasullari faqat uning hidoyatini bandalarga yetkazishga mas’ul etilgan, ya’ni payg‘om (xabar) eltuvchidirlar. “Hukm qilish faqat Allohning o‘ziga xosdir”, deyiladi Qur’oni karimning “An’om” surasi 57-oyatida. Atrof-muhit, tabiatga behuda zyon yetkazmaslik yana bir umuminsoniy qadriyat bo‘lib, afsuski, bu ham hanuzgacha ko‘philik insonlar tomonidan amalda rioya etilayotgan qoidaga aylangani yo‘q. Insonlar, odatda, arzimas hoyu-havaslari yo‘lida o‘z kelajaklari ildiziga ayovsiz bolta uradilar. Yana bir umuminsoniy qadriyatadolat tuyg‘usi bo‘lib, o‘zbek xalqining “pichoqni avval o‘zingga ur, og‘rimasa, birovga ”, degan o‘tkir ramziy maqoli bu qadriyatni kuchli bir tarzda ifodalaydi. Inson kofirga ham, musulmonga ham, do‘sriga ham, dushmaniga hamadolat yuzasidan muomala qilishi zarurligi ilohiy kitoblarda ham ochiq-oydin bayon etilgan. Alloh taoloning “Rahmon” ism sifatida uning Oliyadolati yorqin ifodasini topgan va bu ham insonga tabarruk ibrat bo‘lmog‘i kerak. Ammoadolat tarozusi pallalarini doimo teng tutish juda kam odamlarga nasib etib kelmoqda. Yaratuvchilik mehnati bilan shug‘ullanib, o‘z moddiy ehtiyojlarini ta’min etish ham umuminsoniy qadriyat va tabiiy zaruratdir. Bu qadriyatni tan olgisi kelmay, aylanib o‘tishga, o‘zgalar mehnati hisobidan o‘z baxtini qurishga uringan kimsalar ham hanuz keragidan oshiq uchraydi. 130 yillik asoratdan so‘ng yangidan mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘z muno-sib o‘rnini egallahsga intilar ekan, avval-boshdan o‘z baxtini o‘zgalar hisobiga qurishga umid bog‘lamasdan, barcha xalqlar bilan teng,

adolatli, do'stona va samimiyl munosabatlar o'rnatishga tarafdar bo'lib chiqmoqda, bashariyatning kelajagi uchun o'zini ham boshqalar qatori mas'ul his etmoqda. Bunday yondoshuv o'zbek xalqining ming yillik ma'naviy tajribasiga ko'p jihatdan muvofiq keladi.

## **Xulosa.**

Bugun O‘zbekistonimizda sodir bo‘layotgan yuksalish, siyosiy, iqitisodiy, erkinlik va farovonlik sharoitlari, ijtimoiy va ma’naviy hayotimizdagi osoishtalikning tabiat, barchasi kecha yoki hozir vujudga kelgan masala emasligini tarixiy mutanosiblikni, davomiylikni tahlil qilgan holda xulosa qila olindi. Bunda Zardushtning “Avesto”dagi ta’limoti, To‘maris, Shiroq, Spitamen jasoratlari qadimgi davrdan halqimizning o‘zligiga egaligini ko‘rsatgani, Eftalitlar, Turk hoqonligi, Arab bosqinchilari ma’naviyatimiz milliy o‘zligimizga tubdan ta’sir eta olmaganini ko‘ramiz. Hatto “Islom” dini mafkurasi ham hayot e’tiqodimizga kirgan bo‘lsada o‘zligimizni o‘zgartira olmadi. Ilk o‘yg‘onish davrida yurtimiz allomalari dunyo ilmiga o‘z mehnatlari durdonalari bilan kirib bordilar. Amir Temur jasorati dunyo tarixiga jahonshumul tarixiy ahamiyat bilan kirib bordi. Bularning barchasi o‘zligimiz metinligini isbot qilib uni hech kim va hech narsa o‘zgartira olmadi.

Ma’naviyatimizning o‘ziga hosligi uning Buyuk ipak yo‘li chorrahasida yaralib, rivojlanib, suyagi qotgani o‘zining o‘zgarmas shakli shamoiliga mansub bo‘lganini aytish zarur. Ma’aviyatimizning qadimiyligi bugun ham kechagidek o‘z o‘rni bilan namoyon bo‘ladi. Biz uni qadimi deganimiz bilan bugun ham hayotimizni tartibga solayotganida hech ajablanmay ishirok etamiz, aynan ishtirok etamiz negaki biz har birimiz bunday ma’naviyatning bir bo‘lagimiz.

Prezident I.A.Karimov O‘zbekistondagi demokratik islohatlar va fuqarolik jamiyati asoslarini shakillantirish ustivorliklari orasida milliy istiqlol g‘oyasining ajralib turuvchi o‘z o‘rni borligini muntazxam ta’kidlab boradi. Bunda ijtimoiy fikir ijtimoiy munosabat, ijtimoy siyosat va boshqa barcha ijtimoiliklar barchasi istiqlolimiz tanasidir. Milliy g‘oyamiz bugungi kunda jamiyatimiz demokratik jamiyat sari, fuqarolik jamiyati sari intilib uning asoslarini yaratish ekan Halqimizning falsafiy hayot fikrini tahlil qilmaslik hato bo‘ladi. Demakki bizning fikrimizcha azaldan hayot falsafasi bo‘lmish xalqimiz etiqodidagi “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” g‘oyasi tarixan qadimda yaritilib hozirda ham o‘z

qadriniyu, amaliyotini yo‘qotgani yo‘q. 7-8 chi asrlarda kirib kelgan islom mafkurasi, falsafasi, ma’naviyati halqimiz hayot falsafasiga kattagina islohiy o‘zgarish olib kirdi. Bu nafaqat etiqod balki jahonnig bugunda ko‘pchilik halqlari ma’naviti madaniyatini tashkil etadigan falsafiy tafakkurga kirib borishimizga sharoit yaratdi va olib kirdi. Shunday bo‘lsada halqimiz so‘zsiz itoatguy yoki ko‘r ko‘rona yangi mafkurani qabul qilibgina qolmay uni o‘z ma’naviyatiga o‘z ijtimoiy hayotiga, o‘z falsafasiga moslashtirib, uni ilmiy amaliy rivojlanishda misilsiz ishlarni amalga oshirdi. Yukoridagilardan kelib chiqib quydagi fikr mulohzalar keltirib chaqarish mumkin bo‘lmoqda ;

- Inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy maksudlarga asoslangan holda islohiy o‘zgarishlarning chuqurlashuvida ustuvorlik qilishi zarurati na faqat amaliy balki tarixiy, ma’naviy va falsafiy masaldir.
- Bunday maslaning muximliga hayotiy talab va zaruriyat oqibati, shu bois uni chetlab o‘tish yoki etibordan chetda qoldirish mumkin bo‘lмаган xatodir.
- Mamlakat ijtimoiy hayot jabhaldarini hayot qonuni yatlari asosida rejalashtirish, tashkil etiish, shuningdek amalga oshirish davir talabi va taqozosi ekanligini hisobga olmoqlik zarurati.
- Amalga oshirilayotgan islohiy xarakatlarimizning barcha maksud niyyati tarixiy o‘zligimizdan, ma’naviy komilligimizdan, insonparvarlik, bag‘rikenlik va boshqa fazilatlarimiz amaliy ustunligi saqlanmogi kerak.
- Axolinig ijtimoiy siyosiy, ma’naviy, ahloqiy, falsafiy va boshqa barcha hususiyatlari jamiyatimiz milliy istiqlol g‘oyasini poydevori ekanligini unitmaslik.
- Yuqoridagi fazilat va hususiyatlar yolg‘iz shahslar yoki guruahlarning hohish irodasidan emas jamiyatning aksariyat ko‘pchiligi istagidan kelib chiqishini hisobga olmoqlik.
- Falsafa, ayniqsa hayot falsafasi jamiyat kishilarining tabiatiga suniy, yuzakichilik, ko‘z ko‘zchilik bilan emas xolisalilo, haqqoniy, ilmiy nazariy bilimlar bilan kiritishi qonunga aylanishi kerak.

- Haybarakallachilik, yuzakichilik, sub'ektivizim, valyuntarizim, kabi jamiyatni hoziru nozirchilik bilan ko‘z ko‘z qiluvchilardan himoya qilish mehanizmlarini ishlab chiqish zarur.
- Yoshlarga, qishloq va uzok chekkalarda joylashgan aholiga, aholi gavjum xududlarga va ayniqsa aholisi kam xududlarga nisbatan adolatli munosabat, ma’naviy jihatdan yondoshish differinsialligini tashkil etish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.2015.
- 2.I.A.Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.1992.
3. I.A.Karimov Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.  
T.-«O'zbekiston»- 1999,
- 4.I.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot – pirovard maqsadimiz. T.-«O'zbekiston»- 2000
- 5.I.A.Karimov Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T(O'zbekiston) 2000
- 6.I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, T.-«O'zbekiston»- 1999,
- 7.I.A.Karimov.. Bunyodkorlik yo'lidan. T.-«O'zbekiston»-1996, s.62
- 8.I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" "Ma'naviyat" Toshkent 2016.
- 9.I.A.Karimov. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: "O'zbekiston", 2011.
10. Mashriqzamin – hikmat bo'stoni. "Sharq" Toshkent 1997.
11. Kutiboev Z. Xoja Ahror Valiy ma'naviyati. "Fan" Toshkent 2007.
- 12.Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. Toshkent 2007.
- 13.O'zbegin. Toshkent 1992.
- 14.Mustaqillik izohli ilmiy –ommabop lug'at. "Sharq" Toshkent 2006.
- 15.A.Ibrohimov,X.Sultonov, N.Jo'raev. Vatan tuyg'usi. "O'zbekiston" Toshkent 1996.
- 16.Mahmudov Tilab "Avesto" Haqida. "Sharq" Toshkent 2000.
- 17.Homidiy H. Tasavvuf allomalari . "Sharq" Toshkent 2004.
  
- 18.<http://www.ziyonet.uz>
- 19.<http://www.lex.uz>
- 20.<http://www.kitoblar.uz>

21. <http://www.gov.uz>

22. <http://www.edu.uz>